

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

IJTIMOIIY-GUMANITAR FAKULTETI

TARIX VA FALSAFA KAFEDRASI

Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) yo‘nalishi

4-kurs talabasi

BOZAROV NURALIBEK SAIDMUROD O‘G‘LINING

**“O‘RTA OSIYODA BIRINCHI RENESSANS DAVRIDA
DAVLAT BOSHQARUVI TARAQQIYOTI” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: Tarix fanlari bo‘yicha (Phd) Yakubova D.T.

DENOV-2022

Annotatsiya

Hammanizga ma'lumki, IX-XII asrlarda O'rta Osiyo hududida birinchi Renessans (Uyg'onish davri) davri sodir bo'ldi. "Renessans" atamasi dastlab Italiyadagi madaniy-ma'naviy yuksalish (14—16-asrlar)ga nisbatan qo'llanilgan, uni o'rta asrchilik turg'unligidan yangi davrga o'tish bosqichi deb baholaganlar. Ammo Renessans, ya'ni Uyg'onish faqat Yevropa hodisasi emas. Movaraunnahrda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (9—12-asrlar) ulkan madaniy ko'tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot rivojlanib, ilg'or insonparvarlik g'oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan.

"O'rta Osiyoda birinchi Renessans davrida davlat boshqaruvi taraqqiyoti" mavzusidagi mazkur bitiruv malakaviy ishida Arab xalifaligi hukmronligidan nihoyasiga yetganidan (IX asr) so'ng, O'rta Osiyoda yuz bergan birinchi Renessans davrida vujudga kelgan davlatlar va ularning davlat boshqaruvi shakli, tuzilishi haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tilgan.

MUNDARIJA

KIRISH	5
I.BOB O'rta Osiyoda birinchi Renessans davri va uning O'rta Osiyo xalqlari tarixida tutgan o'rni	
1.1Yuksalishni yuzaga keltirgan sabablar va omillar.....	10
1.2 Uyg'onish davrining O'rta Osiyo xalqlari siyosiy hayotidagi o'rni va roli.....	13
II.BOB IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda vujudga kelgan mustaqil davlatlar va ularning boshqaruv tizimi	
2.1 O'rta Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishi.....	16
2.2Birinchi Renessans davrida davlat boshqaruv tartibi.....	28
XULOSA.....	58
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	61
Ilova.....	65

KIRISH

Bitiruv ishi mavzusining dolzarbligi. Har bir xalqning davlatchilik va madaniyati tarixini o'rganish nafaqat ilmiy yoki nazariy, balki chuqur ma'naviy-ruhiy ahamiyatga ega bo'lib, har birimizda o'zimiz tug'ilgan va yashayotgan ona zamin bilan mustahkam aloqadorlik hissini rivojlantiradi. Mustaqillik yillarida xalqimizning o'z o'tmishiga qiziqishi kuchaydi. O'zligimizni anglash, tariximizni o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki, xalqimizning madaniy-ma'rifiy an'analari va merosini o'rganishda, milliy g'oyaning shakllanishida tarix fanining ahamiyati beqiyosdir.

Qadimgi va boy tariximizni o'rganish, uni keng ommaga yetkazish har bir tarixchi oldida turgan dolzarb vazifadir. Renessans davrining dunyo tamaddunida naqadar muhim ekanligini muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning keltirib o'tgan quyidagi fikrlaridan ham bilib olishimiz mumkin.

“Hammangizga yaxshi ma'lum, antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash'alasi to'qqizinchi – o'n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy singari o'nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi.

“Islom madaniyatining oltin asri” deb e'tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Mu'in Nasafiy kabi ulug'ulamolar butun musulmon olamining faxru iftixori va cheksiz g'ururi hisoblanadi”¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 1-oktabr O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan 30.09.2020

Xalqimiz tarixini o'rganish va uni targ'ib etishda, o'zbek davlatchiligi tarixida, uning madaniy rivojlanishida hukmdor sulolalar boshqaruvi, ularning ayrim vakillari alohida o'rin tutadi. O'zbek xalqi davlatchiligi taraqqiyotida Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar davlatlarining hukmronligi boshqa sulolalarga qaraganda katta ahamiyat kasb etadi. Bu davr ilm-fan va ma'rifatning rivojlangan davri bo'ldi hamda Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ismoil Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband kabi ulug' mutafakkir olimlar va allomalar yetishib chiqishida muhim bosqich bo'ldi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Birinchi Renessans davrida vujudga kelgan davlatlar tarixiga oid manbalar ichida Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning (899-959) "Buxoro tarixi" (944), Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar yoki "Osor ul-boqiya" (1000), Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy – Nizomulmulkning (1018-1092) "Siyosatnoma" yoki "Siyar ul-muluk" (1091), asarlari o'sha davrning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixini o'rganishda alohida o'rin tutadi. Shuningdek, Abul-Fazl Bayhaqiyning "Tarixi Ma'sudiy" (1030-1041), Abu Jafar Muhammad at-Tabariyning "Tarixi Tabariy", Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma", Mahmud Qashg'ariyning "Devonu lug'at at-turk" kabi asarlarida ham o'sha davrning tarixi bayon qilinadi. IX-XII asrlarda tashkil topgan davlatlar tarixiga oid bir qancha ma'lumotlar tarixchi olimlar N.N.Negmatov, G.A.Hidoyatovning asarlarida yoritilgan. Shuningdek, N.Ya.Bichurin (Otets Iakinf), V.V.Bartold, A.Yu.Yakubovskiy, S.A.Agadjanov, B.Axmedov, K.Shoniyozov, A.Ziyo kabi olimlarning asarlarida ham berib o'tilgan.

Bitiruv ishining obyekti va predmeti. Manba va adabiyotlar bilan bir qatorda mustaqillik yillarida mavzuga oid to'plamlar nashr qilindi hamda gazeta va jurnallarda bir qator maqolalar chop etildi. Ammo, tadqiqot obyekti sifatida tanlangan mavzuga oid manba va adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, bu

muammo alohida ilmiy mavzu sifatida hali to'liq o'rganilmagan. Ushbu jihatlar mavzuning tadqiqot predmeti sifatida tanlanishiga sabab bo'ldi.

Bitiruv ishining maqsad va vazifalari. Birinchi Renessans davrida O'rta Osiyoda mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi va ularning boshqaruv shakllariga bag'ishlangan masalalarni chuqur o'rganish va qiyosiy tahlil qilish asosida, ushbu davlatlarning boshqaruv tizimi va uslublarini yoritish maqsadida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

-Birinchi Renessans davrida O'rta Osiyoda davlatchilik va boshqaruvni qiyosiy tahlil qilish va chuqurroq o'rganish, yangi ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish;

-IX-XII asrlarda tashkil topgan davlatlar Somoniylar, G'aznaviylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar davlatlarining boshqaruv tizimini tadqiq qilish va xulosalar berish;

-O'zbek davlatchiligi taraqqiyotida Somoniylar, G'aznaviylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar davlatlarining o'rni va ahamiyatini ko'rsatish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Arab xalifaligi siyosiy zaiflashuvining tarixiy sabablari, Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlatlarning vujudga kelishi jarayonlari manba va ilmiy adabiyotlar asosida nazariy tadqiq qilindi.

Bitiruv ishini tayyorlashda foydalanilgan adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlarning qisqacha tahlili

Mustaqillik yillarida e'lon qilingan yangi ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Shunga ko'ra tanlangan mavzu bo'yicha bitiruv ishini tayyorlash jarayonida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 2020- yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-yundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning

mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3775-sonli qarori, 2019-yil 16-yanvardagi "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4119-son qarorlaridan foydalanildi.

Shuningdek, tadqiqotning nazariy-uslubiy yo'nalishlari O'zbekistonning yangi tarixi konseptual-metologik talablarga asoslangan bo'lib, mavzuning tahlili jarayonida sivilizatsion yondashuvga rioya qilindi.

Bitiruv ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining natijalari O'rta Osiyoning IX-XII asrlari haqida bo'lib, Birinchi Renessans davlatlari haqidagi yangi ma'lumotlar o'quvchilarga kengroq tushunchalar berishi, tadqiqot ishida umumlashtirilgan ma'lumotlardan ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlarida hamda milliy istiqlol g'oyalariga sodiq komil insonni tarbiyalashda foydalanish mumkin. Bitiruv ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, O'zbekiston tarixining muhim sahifalaridan birini tashkil qiluvchi ushbu davrni o'rganish orqali mamlakatimiz tarixini qiziqish bilan o'rganayotgan talaba-yoshlarimiz, mustaqil qiziquvchilar uchun muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Bitiruv malakaviy ishi IX-XII asrlarda bo'lgan davr voqealarini o'z ichiga qamrab oladi.

Bitiruv ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi; kirish, ikki bob, 4 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan tashkil topgan.

I.BOB O'rta Osiyoda birinchi Renessans davri va uning O'rta Osiyo xalqlari tarixida tutgan o'rni

1.1. Yuksalishni yuzaga keltirgan sabablar va omillar

Fanda «Uyg'onish davri» deb nomlangan davr G'arbiy va Markaziy Yevropadagi mamlakatlarda XIV–XVI asrlardagi rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Birinchi marta «uyg'onish» atamasini XVI asr italyan rassomi va tarixchisi J. Vazari o'z asarlarida qo'llaydi.² Lekin bu atama XIV–XVI asr ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish mohiyatini ochib bermasdan, ko'proq antik davr merosini, ya'ni, antik madaniyatga o'xshash madaniyatning qaytadan «tirilishi», «uyg'onishi» va «jonlanishi» ma'nosida ishlatila boshlandi.

Keyinchalik bu atama fanda keng qo'llanildi. Shu ma'noda ko'pchilik tadqiqotchilar IX–XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida madaniyatning rivojlanishiga xos xususiyatlarini ham «uyg'onish» davri deb atalishi yuqorida qayd qilinganidek, shartlidir deb hisoblaydilar. Haqiqatda XV–XVII asrlarda Yevropa mamlakatlarida birin–ketin madaniy yuksalish ko'zga tashlanadi. Bu madaniy yuksalish, birinchi navbatda, ijtimoiy–iqtisodiy o'zgarishlar bilan, jamiyat hayotida shaharlarning, shahar madaniyatining hunarmandchilik ishlab chiqarishining rivoj topishi bilan uzviy bog'liq edi. Renessans madaniyati birinchi bo'lib Italiyada boshlangan.

Ma'lumki, Italiya o'sha davrda O'rta yer dengizda, temir va havo yo'llari bo'lmagan bir davrda, suv yo'li orqali savdo-sotiqni rivojlantirish, boshqa mamlakatlar bilan turli iqtisodiy–madaniy aloqalarni avj oldirishda markaziy o'rinlardan birini egallar edi. Italiya suv yo'li orqali bevosita rivoj topgan sharq davlatlari, xususan, arab davlatlari bilan yaqindan aloqada bo'lishga intildi. IX–XII asrlarda Yaqin va O'rta Sharq xalqlari, musulmon Sharqi madaniyatning yuqori cho'qqiga ko'tarilgani tarixdan ma'lum. Italiyaning bu davlatlar bilan iqtisodiy–madaniy aloqalari Yevropada Renessans madaniyatining vujudga kelishida muhim rol o'ynagan. Italiyaning Sharqiy qo'shnisi bo'lgan Ispaniyada esa musulmon madaniyatini bevosita rivoj ettirgan arab davlati–Qordova xalifaligi deyarli XV asrlarga qadar davom etdi.

² "Uyg'onish davri" O'zME.U-harfi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

Bularning barchasi Italiyada boshlangan Renessans, Uyg'onish madaniyati shakllanishida IX-XII asrlarda Yaqin va O'rta Sharq Uyg'onish davri madaniyati, fani bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. XII-XV asrlarda Italiyada Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Marvoziy, Farobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd kabi mashhur Sharq olimlarining asarlari lotin tiliga tarjima etildi, arab ilmiy yutuqlarini o'rganishga intilish kuchaydi. Bu asarlar Yevropaga keng tarqaldi va Renessans madaniyatining muhim qismiga aylandi.³

Ma'lumki, V asr oxiri va IX asr o'rtalariga kelib, arab xalifaligi Sharqda eng rivojlangan imperiyaga aylandi. Xalifalar Mansur, Xorun ar – Rashid, Ma'mun davrlarida xalifalikning markaziy shaharlari, xususan, Bog'dod iqtisodiy va madaniy jihatdan eng rivojlangan shaharga aylandi. Madaniyat, ilm-fan taraqqiy etdi. Bu yerda turli ilmiy, diniy, muzokaralar avj oldi, turli mamlakatlardan kelgan ilm vakillari tomonidan keng ilmiy muhokamalar uyushtiriladigan bo'ldi, ilmgohlar vujudga keldi, kitob ko'chirish, turli tillardan arab tiliga ilmiy kitoblarni o'girish avj oldi, maxsus tarjimonlar maktabi vujudga keldi, asar yozishga qiziqish kuchaydi. VIII asr oxiri va XI asr boshida arab xalifaligi og'ir siyosiy vaziyatni o'z boshidan kechirdi. Xalifalik hududida mahalliy xalqlarning hukmron ma'murlar zulmiga qarshi qo'zg'olonlar avj oldi, ayniqsa uning boshqaruv markazida ichki nizolar tinimsiz davom etmoqda edi. Bu vaziyat o'z navbatida joylarda, xususan O'rta Osiyoda ham mustaqil davlatlarning tashkil topishi uchun shart-sharoitlar yaratmoqda edi.

XII asr o'rtalarigacha bo'lgan besh asrlik davr vatanimiz xalqlari ma'naviy–madaniy hayotida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrda madaniyat, uning deyarli barcha sohalari yuksak darajada rivoj topdi va O'rta Osiyoning dunyo madaniyati tarixiga qo'shgan hissasini belgilab berdi. Movarounnahr,

³ Метс А. “ Мусульманский ренесанс” М. 1966 38-bet

Xuroson xalqlari qadimiy madaniy an'analarga boy va ma'naviy mavqei jihatidan yuqori edi.

Shu sababli O'rta Osiyo arab xalifaligiga, musulmon dunyosiga kirgandan so'ng VIII – XII asrlar davomida barcha musulmon o'lkalari madaniyati rivojida yetakchi o'rinlardan birini egalladi. Islom dini, adabiyot, tabiiy fanlar, tarixnavislik, san'at, falsafa, huquqshunoslik, ijtimoiy tafakkur kabi madaniyatning barcha sohasida ham bu davrda buyuk siymolar, mutafakkir olimlar, zamonasining ilg'or kishilari yetishib chiqdilar. Bu davrda birinchi akademiya – «Donolik uyi» tashkil topdi va bu yerda turli ilmlarning rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratildi, arab xalifasi Ma'mun uning rivojiga maxsus mablag' ajratib turdi. Akademiya – «Donolik uyi»da xalifalikning turli o'lkalaridan kelgan arab, yahudiy, fors, turk, hind, yunon olimlari birgalikda ish olib bordilar. Uning faoliyatida O'rta Osiyodan borgan olimlar ham muhim rol o'ynadi.

O'rta Osiyoning Buxoro, Marv, Samarqand, Termiz, Urganch, Xo'jand, Aksikent, Marg'ilon, Binkent, Kesh (Shahrisabz), Nasaf (Qarshi) kabi shaharlari o'z davrining taraqqiy etgan shaharlari va savdo markazlari sifatida ma'lum bo'ldi.⁴ Shunday qilib, IX – XII asrlarda Markaziy Osiyoda fan va madaniyat bobida shu qadar ajoyib fan kashfiyotlari va tadqiqotlari yaratildiki, bu o'tmish ajdodlarimizning jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan bebaho hissasigina bo'lib qolmasdan, ularning aql-zakovatining nihoyatda yuksakligidan ham dalolat beradi.⁵

1.2 Uyg'onish davrining O'rta Osiyo xalqlari siyosiy hayotidagi o'rni va roli

⁴ Сагдуллаев А. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. - Тошкент: Академия, 2000.55-bet

⁵ Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. Масъул мухаррирлар Д.А.Алимова, Э.В.Ртвеладзе. - Тошкент: Шарк, 2001.43-bet

Uyg'onish davri madaniyati boshqa o'lkalardagi so'nggi madaniy yuksalishga katta ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumki, VIII asrlarda O'rta Osiyo Yaqin Sharqda yangi vujudga kelgan arab xalifaligi tomonidan istilo qilindi. Keskin kurashlar, qarshiliklarga qaramay yerli xalq bosqinchilarga qaram bo'lib qoldi. Ma'naviy norozilik kuchaya bordi, xalq mustaqillikni tiklash uchun kurashga qo'zg'aldi. Xalqning ana shu kurashi natijasida Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Xorazmshohlar davlatlari vujudga keldi, ular uzoq vaqt hukm surmagan bo'lsa-da, har qalay Yaqin va O'rta Sharqda yangi shakllangan musulmon o'lkalari o'rtasida iqtisodiy-madaniy aloqalar avj oldi. Markaziy Osiyoda IX-XII asrlarda tashkil topgan markazlashgan davlatlar davrida Samarqand, Buxoro, Urganch, Marv, Termiz va ko'plab shaharlar ma'muriy va madaniy markazlarga aylandi.

Madaniyat namunalari bilan almashuv, o'zaro ma'naviy ta'sir kuchaydi. Qadimgi hind, eron, arab, yunon madaniy boyliklari qorishib, foydalanilgan adabiyotlarda «musulmon madaniyati» deb nom olgan yangi madaniy qatlam vujudga keldi. Qadimgi madaniyat a'inalariga nihoyatda boy bo'lgan O'rta Osiyoda mustaqillikka erishgan xalq bu davr ichida o'z madaniyatini yuksaklikka ko'tara oldi.

Shaharlar, shahar madaniyatining tez rivoji hamda madaniy aloqalarning kuchayishi samarasi bo'lgan Uyg'onish, Renessans shu davrda boshlandi. O'rta Osiyo ilm-fan, ma'naviyat, tarixda misli ko'rilmagan namunalar yaratdi. O'rta Osiyoda IX – XII asrlarda hukm surgan Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Xorazmshohlar davlatlari xalqaro maydonda o'z mavqei va tutgan o'zni jihatidan katta e'tibor va nufuzga ega bo'ldilar. Ahmad, Nasr, Ismoil Somoniy, Alptakin, Mahmud G'aznaviy, To'g'rulbek, Sulton Sanjar, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko'ra oladigan davlat arboblari davrida O'rta Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishga erishildi, davlat hokimiyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi.

I Bob bo'yicha xulosa

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda faoliyat ko'rsatgan markazlashgan davlatlarda yaratilgan siyosiy hamjihatlik, iqtisodiy-ma'naviy ehtiyojlar, shuningdek Buyuk Ipak yo'li orqali xorijiy mamlakatlar bilan savdoiqtisodiy va madaniy aloqalarning keng rivojlanishi o'lkamizda qurilish, me'morchilik, adabiyot va san'at, hunarmandchilik, ilm-fan va dinning rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratdi. Demak:

–Markaziy Osiyoda ishlab chiqarish munosabatlari qadimdan tarkib topgan Osiyocha ishlab chiqarish usuli asosiga qurilgan edi. Unda davlat hokimiyati xal qiluvchi rol o'ynar edi. IX-XII asrlarda davlat mavqyeining o'sishi iqtisodiy ahvolning yaxshilanishiga turtki berdi. Ko'chmanchilar xavfining tugatilishi, barqarorlik, yuksak dehqonchilik madaniyati, hunarmandchilik va boshqa sohalar iqtisodning rivojlanishiga turtki bo'ldi;

–Markaziy Osiyoning geografik joylashuvi va Buyuk Ipak yo'lidagi savdo aloqalari nafaqat iqtisodiy, balki (Sharq va G'arb o'rtasida) o'zaro ilmiy va madaniy tajriba almashuviga katta ta'sir ko'rsatdi. Buyuk Ipak yo'li orqali xalqaro aloqalarning rivojlanishi katta ahamiyatga ega bo'ldi;

– Markazlashgan davlatlarning vujudga kelishi ;

–qadimdan asrlar davomida shakllangan milliy davlatchilik tajribasi mavjudligida (Xorazm, Kushon, Eftalitlar, Turk hoqonligi va boshqalar) edi. Chunki milliy davlatchilik an'analari o'lkamizda markazlashgan davlat tashkil topishiga turtki bo'ldi. Shu nuqtai nazardan Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Xorazmshohlar davlatlari haqida gapirish mumkin.

– Markaziy Osiyoda tarixan yuksak ma'naviy madaniyat shakllandi. Ming yillar davomida vujudga kelgan ma'naviy qadriyatlar turli xil dinlar va xalqlar o'rtasidagi aloqalar zahirida rivojlandi. Markaziy Osiyo barcha jahon dinlari

(zardushtiylik, buddizm, nasroniylik, islom) tarqalgan yagona hudud hisoblanadi. Biz o'rganayotgan davrda islom dinining davlat va jamiyat mafkurasi darajasiga ko'tarilishiga, vatanimizning islom dini va madaniyati markaziga aylanishi, o'lkamizda fiqhshunoslik, tafsir, tasavvuf ilmlarining rivoji shundan dalolat beradi.

Islom dini davlat tayanchiga aylandi. Markaziy Osiyo davlatlarida hukmdorlar islom dini, ilm-fan va madaniyat namoyandalariga homiylik va rahnamolik qildilar. Albatta (hamma hukmdorlar ham emas) ba'zi hukmdorlar davrida saroyda olimu fuzalolar, din peshvolarining faoliyati uchun yaxshi sharoit yaratildi. O'z navbatida, ular davlatda ilm-fan va madaniyat ravnaqiga xizmat qilganlar. Xulosa qiladigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan omillar IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda Uyg'onish davri yuzaga kelishiga turtki bo'ldi.

II.BOB. IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda vujudga kelgan mustaqil davlatlar va ularning boshqaruv tizimi

2.1 O'rta Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishi

Movarounnahr va Xurosonda arab bosqinchilariga qarshi tinmay davom etgan xalq harakatlari xalifalikning qudratiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning siyosiy, ma'naviy va iqtisodiy poydevorini ma'lum darajada zaiflashtirdi. O'z navbatida mahalliy feodal zodagonlarning xalifalikni idora etishda keng ishtirok etishi uchun zamin tug'ildi. Ma'lumki, xalifalar bu qo'zg'olonlarni bostirish davomida bir necha bor mahalliy zodagonlardan yordam so'raganlar. Ko'rsatilgan yordam evaziga ularni ma'lum viloyat va o'lkalarning noiblari qilib tayinlaganlar. Tez orada

mahalliy zodagonlar faqatgina Movarounnahr va Xurosonda emas, balki xalifalik markazida ham yuqori lavozimlarni egallashga muvaffaq bo'ldilar.

Davlatni idora etishda yuqori pog'onaga erishgan mahalliy zodagonlar sulolasidan biri barmakiylar bo'lgan. Xalifa Xorun ar-Rashid (786—809 yillar) barmakiylar qudratini oshib borayotganidan qo'rqib, bu sulolaning hammasini o'ldirib yuborgan. Xorun ar-Rashid o'limidan keyin taxt uchun bo'lgan kurashda yana bir mahalliy zodagonlar sulolasi tarix sahifasiga kirib keldi. Bu Tohiriylar sulolasidir. Sulola asoschisi Tohir ibn Husayn Xurosonning eng yirik yer egalaridan bo'lib u Xorun ar-Rashidning o'g'li Ma'munni taxtga o'tirishiga yordam bergan. Ma'mun (813— 833 y.) xalifa bo'lib olgach, Tohir ibn Husayn tez orada xalifalikning eng nufuzli kishilaridan biriga aylandi. U bir necha vaqt xalifa qo'shinining bosh sarkardasi lavozimida ishladi.

821-yili esa xalifa uni Xuroson noibi qilib tayinladi. Tohir Xuroson noibligini poytaxti qilib Nishopur shahrini tanladi. Xurosonga qaytgach u o'ziga qarashli noiblikni mustaqil davlatga aylantirish rejalarini tuza boshladi. IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda somoniylar sulolasi paydo bo'lgan. Somoniylar sulolasiga asos solgan Somon yirik yer egasi bo'lgan.

Manbalarning birida u Balx yaqinidan, ikkinchisida esa Samarqand atrofidan yoki Termizdan bo'lganligi qayd etilgan. Somon Ma'mun Xuroson noibligi paytida unga xizmatga o'tgan va tez orada uning e'tiborini qozongan, Ma'mun ta'siri ostida xalq zardushtiylik dinidan voz kechib, islom diniga kirgan⁶. Xuddi shu vaqtda Somonning o'g'li Asad ham xalifa Ma'mun e'tiboriga tushgan. Asadning to'rtta o'g'li bo'lgan va ular Ma'mun saroyida xizmat qilishgan. Ma'munning buyrug'iga binoan Xuroson noibi Asadning o'g'illarini 820-yilda Movarounnahr o'lkalariga noib qilib tayinlaydi. Xususan, Asadning katta o'g'li Nuhni Samarqand, Ahmadni Farg'ona, Yahyoni Shosh va Ustrushonani, Ilyosni Xirot noibi qilib tayinlaydi. Tohir ibn Husayn Asadning o'g'illarini yaxshi bilgan

⁶ Негматов Н. Н. Государство Саманидов. – Дўшанбе: Дониш, 1977. 72-bet

va ularga kerakli vaqtda yordam qo'lini cho'zgan. Bu davrda Movarounnahrning Samarqand, Farg'ona, Toshkent va Ushrushona viloyatlarida noiblik qilayotgan somoniylar xonadonining siyosiy hayotida ham asta-sekin o'zgarishlar yuz beradi. Movarounnahrda avval Nuh, so'ngra Ahmad boshchilik qiladi. Hatto o'z nomlaridan misdan chaqalar zarb etadilar.

Ahmad vafotidan (865) keyin uning o'g'li Nasr Samarqandni markazga aylantiradi. Buxoro vohasi, Naxshab (Qashqadaryo), Chag'onrud (Surxondaryo) vodiylaridan tashqari Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va uni Xurosondan ajratib olish choralari ko'radi. Tohiriylar davlatining barham topishi bilan vaziyat tubdan o'zgarib, istiqloq uchun qulay sharoit paydo bo'ladi. Chunki safforiylar Movarounnahrda hukmronlik qilishning uddasidan chiqib olmayotgan edilar. O'z holiga tashlab qo'yilgan Buxoro ahli hatto safforiylarga tobe bo'lishni xoxlamaydi. Shahar zodagonlari somoniylarga murojaat qilib, Samarqandga-Nasr ibn Ahmad huzuriga elchilar yuboradilar. Undan Buxoroni o'z qo'li ostiga olishni va Somoniylar xonadonidan bir kishini Buxoroga hokim qilib yuborishni so'raydilar. Nasr bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qilib, ukasi Ismoilni (874) Buxoroga noib qilib yuboradi.

IX asrning oxirgi choragida Movarounnahrning deyarli barcha viloyatlari somoniylar tasarrufiga o'tib, u o'z mustaqilligini tiklab oladi. Farg'ona, Isfijob (Sayram), Shosh, Samarqand, Buxoro Xorazm, Chag'aniyon, Xuttalon, Kesh, Xuroson, Seyiston, G'azna kabi qator viloyatlar Somoniylarga bo'ysundirildi. Ularning hammasi ham mutlaqo tobe' bo'lmasada, Somoniylar xokimiyatini tan olishga majbur bo'lgan edilar. Ismoil Somoniy yirik yer egasi bo'lib, mahalliy zodagonlar va savdogarlarga tayanib davlatni idora qilgan.

Shunday qilib, IX asr oxirlarida Movarounnahr Arab xalifaligi istibdodidan abadiy xalos bo'ladi. Ismoil Somoniy butun Movarounnahrni o'z qo'li ostida kuchli bir davlat qilib birlashtiradi.⁷

Somoniylar davlat tizimi va boshqaruvi. Somoniylar o'z davlatida juda yaxshi yo'lga qo'yilgan hukmronlik tizimini o'rnatdilar. Davlat boshida juda katta vakolatlarga ega bo'lgan **amir** turar edi. Somoniylar davlatining ma'muriy tuzilishi quyidagicha bo'lgan: dastavval boshqaruv organi dargoh (oliy hukmdor saroyi) va devon (davlat idorasi)ga bo'lingan.

Narshaxiyning ma'lumoti bo'yicha, Somoniylar davlati asosan devoni vazir, mustavfiy, amidal-mulk, sohibi shurat, sohibi muayyid, mushrif, mumallikayi xos, muhtasib, avqof va qazo nomlari bilan yuritiladigan 10 ta devonlar boshqaruvida idora etilardi. Barcha devon boshliqlari vazirga tobe edi.⁸

Somoniylar markazlashgan hokimiyat yaratishga intilib, davlat boshqaruv apparatini yengillashtirib, takomillashtirdilar. Davlatning barcha boshqaruv idoralari ikki toifaga bo'lindi:

1. dargoh (amir saroyi)

2.devonlar

Dargoh hukmdor sulolasi, ya'ni amir saroyiga tegishli shug'ullangan.Ular orasida vazir devoni bosh boshqaruv mahkamasi hisoblanar va davlatning ma'muriy, siyosiy va xo'jalik tartiboti uning bevosita nazorati ostida tutib turilardi.⁹

Dargoh qoshida quyidagi asosiy lavozimlar faoliyat ko'rsatgan:

- sohibi haros-saroy soqchilarini boshqargan;
- bosh hojib-saroy xavfsizligi uchun ma'sul bo'lgan;
- vakil saroy xo'jaligiga mudirlik qilgan;
- amiri haros oliy hukmdor farmonlarini bajargan

⁷ Азамат Зиё. Ўзбек халқи давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарк, 2001.93-бет

⁸ Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi.T, 1995.68-bet

⁹ B.Eshov. O'zbekiston davlatчилиги va boshqaruv tarixi T.2014.

Somoniylar davlati quyidagi 10 ta devonlar boshqaruvida idora etilardi

1.**Devoni vazir yoki xojayi kalon**-eng muhim devon. Vazir - hukumat boshlig'ini birinchi yordamchisi bo'lgan. Ushbu devon bosh boshqaruv mahkamasi ahamiyatiga ega edi, ya'ni davlatning barcha ma'muriy, siyosiy va xo'jalik muassasalari ustidan nazorat qilgan, devonlar boshliqlariga rahbarlik qilgan.

2.**Devoni mustavfiy**-moliya ishlari devoni. Ushbu xazinasi ishlari bilan shug'ullangan. Devon ixtiyorida maxsus hisobchilar, munshiy va kotiblar faoliyat ko'rsatgan.

3. **Devoni ar - rasoyil** -hujjatlarni rasmiylashtirish devoni. Ushbu devon davlat hujjatlarini ishlab chiqish va diplomatik aloqalar bilan shug'ullangan.¹⁰

4. **Devoni sohib al - ushrot** . Ushbu devon maxsus saralangan harbiy qismlarga boshchilik qilish, ularning tayyorligi, tartib-intizomi, oziq– ovqati, xo'jalik va moliyaviy ta'minoti ishlari bilan shug'ullangan.

5. **Devoni sohib - al barid** - xat - xabarlar devoni. Ushbu devon markazda qabul qilingan qarorlar, rasmiy hujjatlarni viloyat, shaharlarga yetkazish va joylardan markazga yetkazish bilan shug'ullangan. Mazkur devonning joylardagi bo'limlari mahalliy davlat idoralari hukmdorlar faoliyati haqida ma'lumotlar to'plab, bevosita dargohga yuborish imkoniga ega edi.

6. **Devoni muhtasib**. Ushbu devon shahar va qishloqlarda, ko'cha va bozorlarda tartibni nazorat qilish, diniy marosimlarni amalga oshirishda chiqmaslikni ta'minlash, savdogarlarning nazorat qilish, hunarmandlarning mahsulotlari tekshirish, narx-navo oshmasligini nazorat qilish bilan shug'ullangan.

7. **Devoni mushrif**- Ushbu devon dargoh ta'minoti bilan bog'liq xazina sarf-xarajatlari usti dan nazorat olib borish bilan shug'ullangan.

8. **Devoni az-ziyo** -davlat mulklari devoni. Mazkur devon hukmdor sulolasiga tegishli mol - mulk, davlat yerlarini boshqarish, nazorat qilish hisob - kitobni olib borish bilan shug'ullangan.

¹⁰ Азамат Зиё. Ўзбек халқи давлатчилиги тарихи. — Тошкент: Шарқ, 2001.95-bet

9. **Devoni vaqf**-Ushbu devon bir shaxs yoki davlat tomonidan ehson maqsadida musulmon ulamolar ixtiyoriga o'tkazilgan mol - mulk, yer - suv, ya'ni vaqf ishlari bilan shug'ullangan.

10. **Devoni qozi**- Mazkur devon qozilarning faoliyatini nazorat qilish bilan shug'ullangan. Devon boshida davlat bosh qozisi turgan.

Davlat boshqaruvining markaziy organlari mahalliy idoralar bilan doimiy aloqada bo'lgan joylarda barcha devonlarning bo'limlari faoliyat ko'rsatgan. Shunday qilib, viloyat davlat muassasalarining bo'ysunishi ikki tomonlik bo'lgan: bir tomondan, viloyat mahalliy boshlig'iga, ikkinchi tomondan tegishli devonga bo'ysungan. Faqat pochta - xabar devonining mahalliy bo'limlari bevosita markazga-gina bo'ysunganlar.

Ular davlat elchilari, mahalliy viloyat hokimlari, mansabdor shaxslar ustidan ham yashirin nazorat olib borganlar. Viloyatlar boshliqlari katxudo, shahar boshliqlari rais deb atalgan Viloyat boshlig'ini oliy hukmdor, raisni katxudo lavozimga tayinlagan. Shaharlarda diniy ishlarni boshqarish shayxulislom qo'lida edi. Somoniylar lashkari ikki toifaga bo'lingan edi:

- 1) doimiy ravishda faoliyat ko'rsatadigan saralangan harbiy qism (gvardiya);
- 2) zarur hollarda viloyatlardan yig'iladigan kuchli harbiy qo'shin. Somoniylarda sud ishlarini yuqorida ko'rib chiqilgan qozilik devoni boshqargan. Joylardagi qozikalonga bo'ysunganlar.

Mamlakatning ichki siyosatida amirning shaxsiy gvardiyasi katta rol o'ynagan. Bu gvardiya turk g'ulomlaridan saralanib olinar, uning boshliqlari katta-katta davlat mansablarini egallar edilar. Turk g'ulomlari bunday sharafiga uzoq yillar sadoqat bilan xizmat qilishlari evaziga muyassar bo'lar edilar.

Turk g'ulomining xizmat pog'onasidan ko'tarilish jarayonini muarrix va davlat arbobi Nizomulmulk (1018— 1092) ning mashhur «Siyosatnoma» asarida bayon etilgan. “Somoniylar davridayoq,— deb yozadi u,shunday qoida mavjud

edi.¹¹ G'ulomlar mansab darajasi pog'onama-pog'ona, qilgan xizmatiga yarasha ko'tarilib borgan. Chunonchi, g'ulomni sotib olgach, u bir yil piyoda askar bo'lib xizmat qilar va zandoniy matosidan tikilgan qabo (kamzulga o'xshash ustki kiyim) kiyib saroy ahli qatorida yurar edi.

Bular bir yilgacha xoh oshkora, xoh yashirincha otga mina olmas edilar. Sezib-bilib qolsalar u jazoga tortilardi. Bir yildan so'ng visoqboshi (3 g'ulomga bosh bulgan kichik komandir) hojib (gvardiyachi rulomlarning oliy mansabi) bilan uning xususida gaplashar, hojib unga yugani bilan turk otini, shuningdek oddiy kamar berishii buyurar edi. G'ulom yana bir yil ot ustida xizmat qilgach, unga qorajur (uzun shamshir) berar edilar. Xizmatining beshinchi yilida unga eng yaxshi egar, yuldo'z -yuldo'z qilib bezatilgan yugan, doroy matosidan tikilgan qabo, cho'qmor berar edilar: chuqmorni g'ulom kamarining halqasiga ilib olar edi. Xizmatning oltinchi yilida u anvoyi kiyim-boshlar olar, yettinchi yili 16 kishi sig'adigan chodir hamda o'z otryadiga 3 g'ulomni olar edi va uni visoqboshi deb atardilar. U kumush bilan bezatilgan qora kigizdan tikilgan qalpoq, ganja qabosini kiyar edi. Uning mansabi, obro'si, birkutilgan g'ulomlari soni yil sayin oshib borar va u nihoyat dastlab xaylboshi (gvardiyachi g'ulomlarning hojibdan keyingi, ikkinchi mansabi), so'ngra hojib mansabiga sazovor bo'lar edi. U qanchalik obro'-e'tibor qozonmasin, qanchalik xizmat qilmasin, baribir 37 yil muddatdan keyingina uni viloyatlarga amir qilib tayinlar hamda unga yer-suv in'om etar edilar». Saroydagi eng ulug' mansabdor hojibi buzurg (ulug' hojib) bo'lib, unga saroy ahliga ko'z-quloq bo'lib turish vazifasi yuklatilgan edi. Alohida xizmat ko'rsatgan hojibi bo'zurklar ayrim tumanlarga hokim qilib tayinlanar edilar. Hojibi bo'zurgdan keyin sohib haras (saroy soqchilari boshlig'i) turgan. Bu mansab ummaviylar va abbosiylar davrida ham mavjud edi. U oliy hukmdorning farmonlarini ijro etuvchi shaxs bo'lgan. Bu haqida Nizomulmulk bunday deb yozadi: «Amiri haras mansabi hamma vaqt muhim mansablardan biri bo'lgan.

¹¹ Nizomulmulk .Siyosatnoma .T.,Adolat.1995.126- bet

Albatta, ulug' hojib mansabi bundan mustasno. Amiri haras oliy hukmdorning farmonlarini ijro etuvchi bo'lganligi sababli, odamlar undan hukmrondan ko'ra ham ko'proq qo'rqar edilar».

So'ngra Nizomulmulk xalifa al-Ma'mun tili bilan bunday deydi: «Mening ikki amir harasim bor. Ularning har ikkisi erta tongdan to qorong'u tushgunga qadar odam boshini tanasidan judo qilish bilan band, jinoyatchilarning oyoq-qo'llarini chopib tashlaydilar, cho'qmor bilan urib zindonga tashlaydilar». Dargohning xo'jalik ishlari bilan vakil shug'ullangan. «Hamma vaqt bu ish tepasida,-deb ta'kidlaydi Nizomulmulk,- mashhur va ishonchli odam turgan. Shoh oshxonasidan tortib, to may omborlari va podshoh otxonasidan doimo ogoh bo'lib, hukmdorning saroyi, bola-chaqasi, shuningdek saroyga ta'lluqli kishilardan ko'z-quloq, bo'lib turuvchi shaxs; har oyda, balki deyarli har kuni, oliy hukmdorning kengashlarida ishtirok etgan, u bilan muloqotda bo'lgan va zarur paytda saroyga zudlik bilan yetib kelib, oliy maqomga fikrlarini izhor etgan hamda mamlakatda ro'y berayotgan voqealardan uni xabardor qilgan».¹²

Bulardan tashqari, dargohda har xil xizmatkorlar, masalan, eshik og'a, dasturxonchi kabi kichik mansabdorlar ham bo'lgan. Joylarda hokimiyat sipoqsolar (katta mulklarda) va hokimlar (mayda ma'muriy idoralarda) qo'lida bo'lgan. Movarounnahr mustaqilligining barqarorligi, avvalambor, markazlashgan mustahkam hokimiyatning qaror topishiga bog'liq edi.

Nasr ibn Ahmad (914-943) davrida Buxoroning Registon maydonida podsho qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, davlat mahkamasi mana shu maxsus binoda joylashgan edi. Mahkama xizmatchilari faqat saroy ahli, ruhoniylar va zodagon dehqonlardan bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga ular muayyan bilimlarga ega bo'lishi shart edi. Odatda, ular arab, fors tillarini puxta egallab olgan, Qur'onni va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan, turli fanlardan

¹² O'sha joyda 110-bet

bir muncha xabardor bo'lgan savodli aslzodalardan tanlab olingan.¹³ Shubhasiz, bu o'rta asrlarning o'ziga xos amaldorlik madaniyati edi. Qadimiy an'analarga asoslangan bu madaniyat Somoniylar davrida ancha-muncha boyitilgan edi.

Markaziy mahkama viloyatlardagi mahalliy boshqarmalar bilan doimiy aloqada bo'lgan. Viloyatlarda, maktubot va axborot (pochta) devonidan tashqari, barcha devonlarning vakillari bo'lgan. Viloyat devonlari, bir tomondan, mahalliy hokimga, ikkinchi tomondan esa markaziy mahkamaning tegishli devonlariga bo'ysunar edilar. Viloyat hokimlari ba'zan vazir deb yuritilardi. Ular sulolaviy xonadonga tegishli amirzodalar yoki sobiq mahalliy hukmdorlar hamda zodagon dehqonlardan tayin etilardi. Bulardan tashqari, har bir shaharda rais - shahar boshlig'i hamda muhtasib -nazoratchisi bo'lardi. Ularni hokimning bevosita o'zi mahalliy aslzodalar yoki ko'pincha oliy tabaqa ruhoniylarning nufuzli vakillaridan tayinlar edi. Mansabdorlarning xizmat haqi uchun davlatning yillik daromad-buromadi (byudjeti) ning deyarli yarmi sarf etilardi.

Shu bilan birga IX-X asrlarda yirik mansabdorlarning davlat oldidagi xizmati uchun yer va suvdan iborat katta-katta mulklar in'om qilina boshlaydi. Bunday mulklar «iqto», unga ega bo'lgan mulkdorlar «muqto» yoki «iqtodor» deb yuritilardi. Iqto tarzida esa ayrim viloyat, voha, rustoq (tuman) yoki shaharlar hadya etilgan. Iqto dastavval asosan oliy tabaqa zodagonlar; sulola a'zolari-amirzodalar va yirik mansabdorlarga in'om etilgan. Iqto mulklari avvalda bir umrga emas, balki ma'lum muddatga berilib, nasldan-naslga o'tkazilmagan. Iqtodorlar hadyaga berilgan mulklarga hali to'la egalik qila olmaganlar. Ular iqto yerlaridai tushadigan daromad yoki uning ma'lum qisminigina yig'ib olish huquqiga ega bo'lganlar xolos.

Butun bir viloyat iqto qilib berilgan noib-vazirga ba'zan o'z nomi bilan chaqapul zarb etish huquqi ham berilar edi. Bu, shubhasiz, o'z navbatida markaziy

¹³ Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: Sharq, 2000.96-bet

hokimiyatni kuchsizlantirib, mahalliy hokimlarning boshboshdoqlik harakatlarining kuchayishiga olib kelar edi. Movarounnahr mustaqillikka erishib, Somoniylar davlatining qaror topishi va uning ravnaqida islom dini ruhoniylarining hissasi katta bo'ldi. Shu boisdan ularning obro'si oshib, poytaxt Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi.

Shaharlarda ko'plab ibodatxonalar, shu jumladan, jome' masjidi, xonaqoh (g'aribxona) va namozgoh (iydi ramazon va iydi qurbon ibodatlari o'qiladigan sajdagoh)lar bino qilindi. Xuddi shu davrda musulmon Sharqidagi ilk madrasalardan biri Buxoro shahrida qad qo'yardi. Buxoroning qadimiy madrasasi shaharning Darvozai Mansur mahallasida xon hammomining yonida joylashgan edi.

Mamlakat ma'naviy hayotining asosi hisoblangan islom mafkurasiga bu davrda «ustod» deb atalgan din va ilm peshvolari rahnamolik qilardi.¹⁴ Keyinchalik bu nom tark etilib, din peshvolari va islom ulamolarining rahnamosi «shayxulislom» nomi bilan yanada ulug'lanadi. Ustoddan keyin «xatib»lar turardi. Somoniylar islom mafkurasining rivojiga katta ahamiyat beradilar. Masjid, madrasa, xonaqohlar qurish uchun maxsus joylar va ularning sarf-xarajati uchun katta-katta mulklar ajratilib beriladi. Natijada diniy muassasalar tasarrufidagi yerlar kengayib, yangi turdagi diniy-vaqf xo'jaligi tarkib topadi.

Masalan, Narshaxiyning yozishicha, Afshona qishlog'ining ekin yerlari atrofidagi yaylovli biyobonlar Ismoil Somoniy tomonidan Buxoro madrasasining talabalariga vaqf qilib beriladi.¹⁵Shuningdek, amir Registon maydoniga tutashgan va Dashtak deb shuhrat topgan keng qamishzor yerlarni Hasan ibn Muhammad Tolut ismli mulqdor arab lashkarboshisidan 10 ming dirhamga sotib olib, Buxoro shahrining jome' masjidi vaqfiga qo'shib beradi. Bunday misollarni ko'plab

¹⁴ B.Eshov. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi T.2014.169-bet

¹⁵ Nizomulmulk .Siyosatnoma .T.,Adolat.1995.162-bet

keltirish mumkin. Lekin nima sababdan va qanday yo‘l bilan masjid va madrasalar tasarrufida katta-katta yer va mulklar to‘planishi hamda vaqf xo‘jaligining tarkib topishi to‘g‘risida umumiy tushunchaga ega bo‘lish uchun keltirilgan misollarning o‘zi ham kifoya qiladi. Tarixchi Abu Mansur as-Saolobiyning Somoniylar Buxorosiga bergan ma’lumotlari butun O‘rta Osiyo davlatlarining IX-XIII asrlardagi ahvoliga tegishlidir: «shon–shuhrat makoni, saltanat ka’basi va zamonasining ilg‘or kishilari jamlangan, yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan hamda o‘z davrining fozillari yig‘ilgan (joy) edi».¹⁶

Qoraxoniylar davlatining boshqaruv tizimi

X asrning ikkinchi yarmiga kelib ichki ziddiyatlarning ko'payishi va keskinlashuvi natijasida Somoniylar davlati kuchsizlana boshlaydi. Somoniylarga tobe bo'lgan viloyatlarda, ayniqsa, Xurosonda ular hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan isyonlar, toju-taxt uchun uzluksiz olib borilgan kurashlar Somoniylar davlati inqirozini yaqinlashtirgan edi. Bunday vaziyatdan Yettisuv va Qashg'arda yashovchi turkiy qabilalar unumli foydalandilar. Chunki, X asrning ikkinchi yarmiga kelib bu hududlardagi turkiy qabilalar – qarluqlar, chig'illar, yag'molar va boshqalar o'zlarining kuchli feodal davlatlarini tuzishga muvaffaq bo'lgan edilar.

Qoraxoniylar turkiy qavmlar ekanligi aniq bo'lsa-da, ularning kelib chiqishi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Ammo, ular o'z sulolalarini «Afrosiyob avlodi» deb ataganlari hamda Qoraxoniylar chig'illar yoki qarluqlar qavmiga mansubligi haqidagi nuqtai nazar o'rta asrlar davri tarixining ko'pchilik tadqiqotchilari tomonidagi e'tirof etiladi.¹⁷

X asr o'rtalarida Yettisuv va Qashqarda yashovchi Qarluq, chig'il va yag'mo qabilalarining ijtimoiy–iqtisodiy hayotida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Avvaldan asosan chorvachilik bilan shug'ullanganbu qabilalar endi o'troq hayotga

¹⁶ Abu Mansur Saolobiy. Yatimat-ut dahr. T., 1976 98-bet

¹⁷ Хасан Ато Абуший. Туркий қавмлар тарихи. – Тошкент, 1993.

o'ta bordi va dehqonchilik bilan shug'ullana boshladi. Shaharlar yuzaga keldi. Yana bu davrda Issiqko'l janubi va Qashqarda yashagan yag'molarning o'zlaridan shimolda yashayotgan chig'il qabilalari bilan yaqinlashuvi tezlashdi. Ular Yettisuvdagi Qarluqlarni uyushtirib, o'zlariga bo'ysundirdilar.

Yag'mo urug'idan chiqqan, o'z qavmi bilan islomni qabul qilgan Sotuq Abdul – Karim Qoraxon (Bug'raxon) 942-yili Bolasog'un hokimini mag'lub etib, o'zini xoqon deb atadi. Qoraxon davlati Yettisuv hududida Qarluq davlati o'rnida tashkil topdi. Bu davlatning vujudga kelishida chigillar, tuxsilar, arg'ular, yag'molar, turgashlar, qipchoqlar, yabaqular, qaylar, o'g'uzlar, qirg'izlar singari urug'-qabilalar muhim rol o'ynagan. Bu davlatga yuqorida qayd etilgan Sotuq Abdul – Karim Qoraxon asos solgan. Xoqon nomiga ko'ra Qoraxoniylar davlati deb nomlangan.¹⁸ U o'zini Afrosiyob (Alp Er To'nga) ning avlodi deb hisoblar edi.

Bu turk davlatining hukmdorlari «**arslonxon**» va «**bug'roxon**» unvonlari bilan yuritilgan. Taxtga o'tirgan bug'roxon yoki arslonxonni «**qoraxon**», ya'ni ulug'xon deb atashgan.. Davlatni boshqarishda ular qoraxoniylar qabilaviy urushning og'alik tartibiga qat'iy rioya qilingan. Unga muvofiq' qabila boshliqlari orasidan yoshi ulug'ini qoraxon etib saylashgan. Odatda, u «**tamg'achxon**», ya'ni xonlar xoni deb yuritilar edi.¹⁹ Qoraxoniylar davlati markazlashmagan davlat bo'lib uning viloyatlari sulola namoyandalariga bo'linib, idora qilingan. Bo'lingan yerlarni el yurt va viloyat deb ataganlar. El - yurt hokimlari eloqxon deb, viloyat noiblari «**takin**» deb atalgan.

Qoraxoniylar sulolasi o'z hukmronligi davrida o'z mulklarining sarhadlarini bir necha marta o'zgartirganlar. Misol uchun, Movarounnahrni egallaguniga qadar ularning mulklari Tyanshan va uning atroflarini egallagan bo'lsa, XI asr boshlariga kelib esa, hoqonlik chegaralari Amudaryogacha yetgan. Oradan ko'p o'tmay ular

¹⁸ Караев О. История караханидского каганате, 1983, с.14

¹⁹ Древний туркский словарь. 1969.с 422-424

Sharqiy Turkistonda Qashg'arni va Xo'jandni qo'lga kiritdilar. Bunday holat xoqonlikning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Har bir viloyat ma'lum siyosiy mavqega ega bo'lgan holda xondan kichikroq unvonga ega elekxonlar tomonidan boshqariladigan bo'ldi.

2.2 Birinchi Renessans davrida davlat boshqaruvi tartibi

Qoraxoniylar Somoniylarga nisbatan davlat tuzilishi va boshqaruvining boshqacharoq shaklini joriy etishga harakat qildilar. Ularda hokimiyat Somoniylarda bo'lgani kabi to'g'ridan-to'g'ri otadan o'g'ilga emas, balki akadan ukaga, keyin sulolaning navbatdagi avlodiga o'tgan. Ayrim olimlarning fikricha, Qoraxoniylarning butun urug'i hokimiyatning jamoaviy sohibi bo'lib, sulolaning har bir a'zosi o'zining kelib chiqishiga ko'ra, umumsulola mulkining bir qismiga da'vo qila olardi. Bu mulkning asosiy qismi sulolaning uch ulug' a'zosi – ulug' xoqon, kichik xoqon va elekxonga tegishli hisoblanardi. Ularning har qanday avlodiga o'z hissasi ajratib berilar edi. Sotuq zamonida Qoraxoniylar davlati ikkiga bo'linib ketadi. Birining poytaxti Bolasog'un bo'lib, oliy hokimiyat yoshi katta bo'lgan xoqon tomonidan boshqarilgan. Ikkinchi davlatning poytaxti Tarozi, keyinchalik Qashqar bo'lib, kichik xoqon tomonidan boshqarilgan.²⁰ Viloyatlar mustaqil siyosat yuritishga intilganlar.

Natijada XI asrning uchinchi choragida Qoraxoniylar davlati g'arbiy va sharqiy xoqonliklarga bo'linib ketdi. Qoraxoniylar davriga to'xtalib o'tsak, vaholanki, boshqaruv shakli jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti, talablari, vazifalari mazmuni bilan chunonchi, asli Yettisuv viloyatida yuksalishni boshlagan qoraxoniylar, yuqorida ta'kidlanganidek, janub, g'arb yo'nalishlarida o'z xukmronlik doiralarini kengaytirib borganlar va buning natijasida Cherchen daryosidan Xorazmgacha bo'lgan hududni boshqara boshlaganlar. Siyosiy markaz

²⁰ Gardiziy Abu Sa'id AbdulxayZayn al- axbor T., 1991. 84-bet

sifatida esa yuksalishlari boshlangan o'z tarixiy makonlaridagi katta shaharlardan bo'lmish Bolosog'un va nisbatan undan uzoqda bo'lmagan Qoshg'arni tanlaganlar. Demak, asosiy siyosiy markaz shu hududda mujassamlashgan.

Buxoro, Samarqand, Chag'oniyon, Farg'ona va boshqalar tabiiy ravishda yangi siyosiy markazga nisbatan viloyat (mulk) o'rnida bo'lgan. Garchi ko'p jihatlardan Samarqand va Buxoro taraqqiyotda Bolosog'un va Qoshqardan ancha yuqori bo'lsa-da, ammo xuddi shu davrdagi siyosiy vaziyatga ko'ra, boshqaruv markazi mintaqaning Yettisuv, Sharqiy Turkiston qismiga ko'chib qolgandi. Ana shu "tabiiy" sabablarga ko'ra, an'anaviy ravishda qadimdan markaz rolini o'tab kelgan Buxoro va Samarqand endigi siyosiy mavqeyiga ko'ra viloyat (mulk) darajasiga tushib qolishlariga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga ularning iqtisodiy, madaniy va ayniqsa, siyosiy imkonlari shu qadar yuqori bo'lganki, ko'rib chiqilganidek, Samarqand, Buxorodagi siyosiy o'zgarishlar Qoraxoniylar sulolasi mavqeida katta ahamiyat kasb etgan.

Ikkinchi tomondan, Somoniylar davrida ham bir qancha viloyatlar (masalan, Xorazm, Seyiston, G'azna, Chag'oniyon va boshqalar) markazdan farqli o'laroq mustaqil siyosat yurgizishga harakat qilganlari ham ma'lum. Demak, somoniylar davridan keyingi siyosiy-geografik o'zgarishlarga sabab bo'lgan qoraxoniylar ukmronlik va boshqaruv tizimida shu o'zgarishlarga yarasha ba'zi yangiliklar bo'lishi tabiiy edi. Ulug' xoqon yoki ulug' xon «xoqon ul-xoqon» degan nomda yuritilib, arab manbalarida mazkur unvon «sulton us-salotin», fors manbalaridagi «shahanshoh»ga mos keladi.²¹ Qoraxoniylarga qarashli yerlar tamg'achxon tomonidan uning o'g'illari, qarindoshlari o'rtasida taqsimlangan edi. Shu bois yer-mulk masalasida ota-o'g'il, amaki va jiyanlar o'rtasida doimiy nizolar yuz berib, u siyosiy ahvolga salbiy ta'sir ko'rsatib turgan.

Qoraxoniylar Movarounnahrni bosib olgach bu yerdagi ijtimoiy-siyosiy hayotda katta o'zgarishlar sodir bo'lganligi bois, Qoraxoniylar o'z davlatlarini

²¹ B.Eshov. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi T.2014. 176-bet

viloyatlarga bo'lib tashlaydilar. Movarounnahr viloyatining poytaxti Samarqand, Farg'onaniki esa O'zgan shahri edi. Bu viloyatlar boshliqlari elekxonlar bo'lib ular Qashg'ardagi tamg'achxonlarga rasman tobe edilar.²² Qoraxoniylar davrida Samarqand elekxoni ancha kuchayib ketgan edi. Samarqand elekxoni saroyida Somoniylar davlatida bo'lgani kabi vazir, sohibi-borid, mustavfiy, hojib, rais-muxtasib kabi amaldorlar bo'lgan. Ta'kidlash joizki, Qoraxoniy hukmdorlari musulmon ulamolari bilan qalin aloqa o'rnatganlar va imomlar, sayidlar, shayxlar, sadrlarni qo'llab-quvvatlaganlar.

Keyingi davrdagi yangi adabiyotlarda ta'kidlanishicha, Qoraxoniylar davrida jamiyatning ijtimoiy bo'g'inlari qo'yidagicha bo'lgan:

- xoqon-ul-xoqon, Qoraxon yoki tamg'achxon. Eng yuqori oliy mansabdor shaxs, davlatning oliy boshlig'i;
- elekxon – xoqondan keyingi pog'onada turuvchi shaxs. U xoqon xonadoniga mansub bo'lib, viloyatning mulk sohibi hisoblangan;
- iqtodorlar – Qoraxoniylar davlatining tayanch qatlami, asosiy harbiy harakatlarni amalga oshiruvchi jangovar bo'linmalar vakillari. Ular o'z martabalariga ko'ra birbirlaridan farq qilganlar, ya'ni, tumanlar va viloyatlar miqyosidagi iqtodorlar;
- islom dinining peshvolari – imomlar, sayidlar, shayxlar, sadrlar. Qoraxoniylar musulmon ruhoniylari bilan yaxshi munosabatlarda bo'lgan bo'lib, davlatda diniy mansabdorlarning mavqei nihoyatda baland edi;
- hokimlar, raislar, muhtasiblar va boshq. Bunday shaxslar Somoniylar davrida bo'lgani kabi Qoraxoniylar davrida o'z mavqelarini mustahkam saqlab olgan ijtimoiy qatlamlardir;
- tariqchilar – ziraotkorlarning turkcha nomi, qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlovchi asosiy ijtimoiy qatlam;

²² Шониёзов К. Ш. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. – Тошкент: Шарқ, 1999.33-bet

- hunarmandlar va savdogarlar – turli xildagi xo'jalik ahamiyatiga molik ashyo, asbob-anjomlar yasovchi, tayyorlovchi mehnatkash qatlam va savdo-sotiq bilan mashhur bo'lgan shahar ahli;
- ko'chmanchilar – chorvadorlar ya'ni, chorva mahsulotlarini yetishtiruvchi asosiy qatlam.

Qoraxoniylar davrida oddiy xalq – budun, soliq to'lovchi fuqaro – raiyyat, qabila boshliqlari – bek, savdogarlar – sart deb atalgan. Somoniylar davrida juda katta kuchga ega bo'lgan dehqonlar, yirik yer egalari Qoraxoniylar davrida o'z ta'sirini asta-sekin yo'qota bordilar. Qoraxoniylar bu yirik yer egalarining mulklarini, yerlarini zo'rlik bilan tortib olib o'zlariga xizmat qiluvchi amaldorlarga, lashkarboshilariga bo'lib berdilar. Shartli ravishda foydalanishga berilgan bu yerlar tarixiy manbalarda «iqto» deb, yer egalari esa «iqtodor» deb atalgan.²³ Asta-sekin bu yerlar avloddan avlodga meros sifatida o'tadigan bo'ldi. Iqto bilan bir paytda yerga egalik qilishning boshqa turlari ham mavjud edi. Bu davrda Movarounnahrda dindorlarga va diniy idoralarga tegishli vaqf yerlari ham ancha kengaydi, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy hayotda musulmon dindorlarining o'rnini katta bo'lganligidan dalolat beradi. Bu davrda yerga egalik qilishning xususiy shakli oz miqdorda bo'lsada saqlanib qolindi.

Bu yerda shuni unutmaslik kerak-ki, Movarounnahrda Qoraxoniylar bilan birga juda ko'p ko'chmanchi turkiy qabilalar kirib keldi. Ushbu qabilalar Qoraxoniylar hukmdorlarga ko'rsatgan xizmatlariga qarab katta-katta yerlarga, serunum yaylovlarga egalik qildilar. Ba'zi hollarda sug'oriladigan dehqonchilik yerlari ham ko'chmanchilarga yaylov tariqasida bo'lib berilgan. Ammo yuqorida ta'kidlanganidek, boshqaruv tizimining shakli siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy omillar bilan bog'liq bo'lgani uchun ham qoraxoniylar davrida somoniylar vaqtida mavjud bo'lgan boshqaruv tizimining asosiy mazmuni saqlanib qolgan. Aslida boshqacha bo'lishi ham mumkin emasdi. Chunki avvaldan shakllanib kelgan va

²³ B.Eshov. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi T.2014 177-bet

obyektiv taraqqiyot natijasi o'laroq yuzaga kelgan boshqaruv an'analaridan qoraxoniylar yuz o'gira olmasdilar.

Oliy hukmdor o'ziga tobe bo'lgan viloyat va shaharlarga hukmdor sulola namoyandalarini tayinlab, bu bilan, tabiiy ravishda, butun mamlakat uzra o'z siyosatini yurgizishni maqsad qilib qo'ygan. Viloyat (mulk) hukmdorlari ilig unvoniga ega bo'lganlar.²⁴ Biroq, ilgarilari ham ko'rganimizdek, viloyatlar markazdan farqli mustaqil siyosat yuritishga intilganlar. Bu o'z o'rnida ichki nizolarga sabab bo'lib, XI asrning uchinchi choragida qoraxoniylar siyosiy birligi ikkiga: g'arbiy va sharqiy xoqonliklarga bo'linib ketadi. Movarounnahrda xukmronlik qilgan qoraxoniylar namoyandalari bundan buyon markazga bo'ysunishdan bosh tortib, mustaqil siyosat yurgiza boshlaganlar. Sharqiy viloyatlarda (Yettisuv, Sharqiy Turkiston) joylashgan siyosiy markaz esa ularni bo'ysundirishra ojiz bo'lgan. Ammo ham g'arb, ham sharq bir siyosiy xonadonning turli namoyandalari orqali boshqarib borilavergan.

G'arbiy xoqonlikda (Samarqand, Buxoro, Xuttalon, Chag'oniyon) Somoniylar davrida mavjud bo'lgan boshqaruv tizimi (bosh vazir, moliya ishlari, davlat rasmiy xujjatlarini ishlab chiqish, soqchilar boshlig'i, xat-xabarlar, saroy ish boshqaruvchisi, muxtasib, vaqflar, qozilik ishlari devonlari) saqlanib qolgani ma'lum. Shuningdek viloyat boshliqlarini hokim, shahar boshligini rais deb atash rasmi ham o'zgarmagan.²⁵ Har qanday davlatchilikda bo'lgani kabi Qoraxoniylar davrida ham markazdagi (dargohdagi) boshqaruv tizimiga katta e'tibor berilgan.

Bunda dargoh, ya'ni oliy hukmdor bilan viloyatlar, fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlantirib turuvchi hojiblar faoliyati alohida o'rin tutgan. Somoniylardan farqli o'laroq Qoraxoniylar davrida hojiblar, asosan, oliy hukmdor, viloyat hokimlarining davlat va raiyat ishlari bo'yicha eng yaqin maslahatchilari hisoblanganlar. Buning isbotini shundan ham bilib olish mumkinki, mashhur

²⁴ Караев О.К. История Караханидского каганата (X – начало XIII вв.) – Фрунзе: Илим, 1983 с.83

²⁵ O'sha joyda. 244-255 bb

mutafakkir va shoir Yusuf Xos Hojib (taxminan 1020-yillarda tugʻilgan) qoraxoniylar Tamgʻoch Qora Bugʻroxon (1074—1102/1103) eʼtiborini qozonib, xos hojib unvonini olgan. Bu haqda uning oʻzi shunday yozgan: “Xos hojib Bugʻroxon, oʻziga eng yaqin odam qildi u”²⁶.

Xuddi shunday unvonga Mahmud Qoshgʻariy (XI) ham munosib koʻrilgani maʼlum. Dargoh faoliyatini tegishli (yaʼni saroy ishlari boshqaruvchisi, hozirda biz protokol yumushlari deb biluvchi, mehmonlarni qabul qilish xizmati (uning boshligʻi “Biruk” deb atalib, bu atamaning “Buyruq” bilan bogʻlikligini ehtimol qilish mumkin), xazinachi (agʻichi), oshxona mutasaddisi (oshchi), sharbatdor, yotoq, kiyim-kechak bilan taʼminlovchi xizmat, ov uyushtirish xizmati (kushchi) va boshqalarning har biri- ning oʻz oʻrni boʻlgan. Oliy hukmdorning xavfsizligini taʼminlash, uning siyosati yoʻlida sodiqona xizmat qilish vazifasi boʻlgan maxsus saralangan harbiy qism (gvardiya) ham dargoh boshqaruv tizimiga kirgan.²⁷

Albatta, gvardiyadan tashqari harbiy qoʻshin ham mavjud edi. Undagi eng muhim lashkarboshilik va boshqaruv mansablariga qoraxoniylar sulolasi namoyandalari hamda sodiqligiga shubha boʻlmagan lashkarboshilar tayinlangan. Agar qoʻshindagi boshqaruv tizimiga nazar tashlansa, shu narsa aʼyonlashadiki, yirik lashkarboshilardan tashqari kichik ofitserlar (chovush), otliqlar sardori (haylboshi), yuzboshi, mingboshi kabi harbiy mansablar ham mavjud boʻlgan. Yusuf Xos Hojib “Qutadgʻu biligʻ” (“Saodatnoma”) asari bilan mashhurdir. Zero, bu asarda davlatni boshqarish usuli, qonun-qoidalar, siyosati, mafkurasi, ijtimoiy guruhlararo munosabatlar, odob-axloq masalalariga oid oʻz davri uchun zarur va foydali, tarixan oʻz ahamiyatini yoʻqotmovchi fikrlar ilgari surilgan.

Chunonchi, u jamiyatning toʻrt ustunini quyidagicha belgilab bergan: adolat, davlat, aqlu zakovat, qanoat. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, mana shu toʻrt

²⁶ Yusuf xos Hojib Qutadgʻu biligʻ. T., 1991 9-bet

²⁷ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. — Тошкент: Шарқ, 2001. 128-130 betlar

ustun asosidagi jamiyat baxt-saodatini ta'minlashda ilm birinchi o'ringa qo'yiladi: "O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar, Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lar". Yo bo'lmasa, asarda keltirilgan davlat idora kishilari haqidagi fikrlarni olaylik. Vazirlar oqil, dovyurak, imonli, nomusli bo'lishlari kerak. Beklar, ya'ni hokimlar esa bilimli, yetuk, ko'zi, ko'ngli to'q bo'lmog'i darkor. Agar ular buzuq fe'l bo'lsalar, zamona o'qidan qochib qutila olmaydilar, ulardan odamlar ham yuz o'giradi, g'amga giriftor buladilar. Yusuf Xos Hojib lashkarboshilar xususida shunday deydi: "Olisdagi yovning vahimasidan qo'rqma, aksincha, undan yaqindan voqif bo'lib tur, shunda uning bor imkonidan xabar topasan. Dushman dag'dag'a qilib do'q qilsa, bardoshli bo'l, chekinma (chunki u bu bilan seni sinamog'i mumkin)"²⁸.

Dargohdagi yetakchi lavozim-hojib sanalgan. Hojib davlat va fuqarolar ishlari bo'yicha xonning yaqin maslahatchisi deb hisoblangan. Hojib oliy hukmdor bilan joybar o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirib turgan. Hojib vazifalari: qonun va odatlarga rioya etish, rasmiy tantanalarni tashkil etish, fuqarolarning iltimos va shikoyatlarini qabul qilish va oliy hukmdorga yetkazish, shuningdek, u elchilarni qabul qilish ishlariga ham mas'ul xodim bo'lgan.

Dargohning muhim lavozimlaridan yana biri - **birin**. Saroy ishlarini boshqarish, mehmonlarni qabul qilish uning vazifa doirasiga kirgan. Bundan tashqari, dargohda xazinachi, oshxona mutasaddisi, ov uyushtiruvchi va boshqa xodimlar faoliyat ko'rsatgan. Qoraxoniylar devonlari: bosh vazir devoni, moliya, rasmiy hujjatlarni ishlab chiqarish, soqchilik, xat-xabarlar, muhtasib, vaqf, qozilik ishlari

Lashkar, oliy hukmdorning xavfsizligini ta'minlash uchun maxsus saralangan gvardiya va harbiy qo'shindan iborat bo'lgan. Shahar boshqaruvi rais qo'lida bo'lgan. Raislar orqali oliy hukmdor o'z hukmini o'tkazib turgan. Shaharlarda muhtasiblar faoyliyat ko'rsatgan Qoraxoniylar o'z hukmronligini mustahkamlash maqsadida musulmon ruhoniylar bilan yaqin munosabatlarda bo'lganlar. Shuning

²⁸ Yusuf Hos Hojib. Qutadg'u bilig T., 1991 5-6 betlar

uchun Qoraxoniylarda imomlar, shayxlar, saidlarning ahamiyati kuchaygan. Saidlar rais lavozimini, shuningdek, qozi lavozimini egallash huquqiga ega edilar. Sud-tartibot ishlarini boshqarish **qozi ul - quzzot** qo'lida bo'lgan. Joylarda sud ishlari bilan qozilar shug'ullangan. Yozma manbalarga ko'ra Qoraxoniylar davlatida ma'muriy va qozilik ishlarini bir shaxs boshqarishi mumkin bo'lgan. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bir vaqtning o'zida mintaqada bir necha o'ziga yarasha qudratli siyosiy kuchlarning faoliyat ko'rsatishi va bundan tashqari qoraxoniylar sulolasidagi ichki kelishmovchiliklar dargohning tashqi ishlar (diplomatiya) masalasiga jiddiylik bilan qarashiga sabab bo'lgan. Buni Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida keltirilgan ma'lumotlar orqali ham bilishimiz mumkin.

Tashqi siyosat bilan shugullanuvchi mansabdorlarga, xususan, elchilar oldiga juda katta talablar qo'yilgan, ya'ni ular "bilimli, uquvli, yetuk, sheryurak, ko'zi to'q, uyat-andishali" bo'lishlari kerak bo'lgan. Talablar ichida shundaylari ham bor: astronomiya, matematika, geodeziya ilmlarini mukammal bilish, shaxmat va nardni raiblaridan ustun darajada o'ynash, harbiy san'atda benazir bo'lish va hech qachon may ichmaslik, so'z, iboralarning to'g'ri va ko'chma ma'nolarini puxta bilish" kabi talablar qo'yilgan.

Bir so'z bilan aytganda, O'rta Osiyo o'rta asrlar davri tarixida 200 yildan ziyodroq hukm surgan Qoraxoniylar sulolasi o'sha davr O'zbekiston xalqi davlatchiligi tarixida ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi O'zbekistonning deyarli barcha hududlari Qoraxoniylar davlati tarkibida bo'lgan.

Qoraxoniylar sulolasining o'zbek xalqi davlatchiligi tarixidagi ahamiyati shundaki, Qoraxoniylar hukmdorlari davlat boshqaruvining ilgaridan mavjud bo'lgan tizimi yoki tashkilotlari o'rniga boshqacharoq, ya'ni, nisbatan qadimgi ko'chmanchilar uslublari, qadimgi turkiylar an'analari bilan bog'liq boshqaruv tartibini joriy etdilar. Shu bilan birga Qoraxoniylar hukmronligi davri o'zidan

oldingi mukammal boshqaruv tizimiga ega bo'lgan Somoniylar boshqaruvidan o'ziga xos bo'lgan iqto (er-mulkni tortiq qilish) va viloyatlarga bo'lib boshqarish (elekxonlar) tizimi bilan ham ajralib turadi.²⁹

G'aznaviylar davlati siyosiy va boshqaruv tarixi.

G'aznaviylarning siyosiy kuch sifatida yuzaga kelishishi va yuksalishi masalasida har xil qarashlar mavjud. Sobiq sovet tarixshunosligida g'aznaviylar to'g'risidagi ba'zi bir qarashlarni qabul qila olmaymiz. Chunki ilgari g'aznaviylarni asosan, salbiy tomondan ko'rsatishga intilib kelingan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Chunonchi, bu sulola asos topgan G'azna viloyati "isyonkor turk lashkarboshilari"ga boylik orttirish uchun qulay joy sifatida sharxlanib, o'z-o'zidan shu yerda kuchga kirgan va mazkur shahar (viloyat) nomi bilan tanilgan g'aznaviylar sulolasi tarixi ham go'yo xuddi shunday maqsad yo'lida yuzaga kelgan va faoliyat ko'rsatganday bayon etilgan.

Aslida esa tarixiy voqelik sabablari bir qancha. Birinchidan, Ismoil Somoniydan keyin somoniylar orasidan har jihatdan yetuk, yuqori darajada siyosat yurgiza oladigan arbob yetishib chiqqani yo'q. Buning oqibatida somoniylar o'z ichki, ya'ni sulolaviy imkoniyatlaridan ko'ra ko'proq mavjud siyosiy qonun-qoidalariga bog'liq bo'lib qolganlar. Siyosiy muhitni esa bu vaqtda nufuzli lashkarboshilarsiz tasavvur qilib bo'lmadi.

G'azna viloyatidagi kuchlar siyosiy faolligining oshishi va borib-borib alohida bir sulola darajasiga ko'tarilishi ham xuddi shunday yirik lashkarboshilar nomi bilan bog'liq bo'lganini biz quyida yaqqol ko'ramiz. Ikkinchidan, Turkiston mintaqasida siyosiy taraqqiyotning o'ziga xos tomonlaridan biri — bu davrda xuddi madaniy hayotdagi kabi bir qator o'ziga yarasha kuchli davlat arboblarning, siyosiy sulolalarning yuzaga chiqishidir. G'aznaviylar sulolasi qandaydir

²⁹ B.Eshov. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi T.2014 180-bet

“o‘ljaparastlik” ketidan emas, balki mintaqada kechgan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar muhitida yuzaga kelganligiga doir guvohliklar manbalarda yetarli darajada topiladi.

G'aznaviylar davlatiga 962-yili G'azna hokimi Sobuqtakin asos solgan. Mahmud G'aznaviy hukmronligi davrida (988-1030) kuchli davlatga aylandi. 961-yili somoniy hukmdor Abdumalik o‘limidan so‘ng vazirlar taxtga marhumning o‘g‘lini o‘tqazadilar. Bunga, manba tili bilan aytganda, “Somoniyalar xonadoni uchun maqtovg‘a loyiq xizmatlar qilib kelgan hamda noiblik va lashkarboshilik yo‘lini tutgan” Alptegin qarshilik qiladi. Shu tariqa davlat arkonlari va Alptegin o‘rtasidagi muxoliflik kuchayib avjiga chiqadi. Lashkarboshi Buxoroni tark etadi. Hatto shundan keyin ham ziddiyatlar tugamay, oxirida Alptegin va Buxoro qo‘shinlari o‘rtasida to‘qnashuv sodir bo‘lib, buxorolik lashkar mag‘lubiyatga uchraydi.

Somoniyalar xonadoni va Movarounnaxr bilan aloqani uzgan Alptegin G‘azna viloyatida o‘z xukmronligini o‘rnatadi. Uning vafotidan (963) so‘ng G‘aznada navbati bilan Amir Isxoq ibn Alptegin, Amir Bilgategin, Amir Piri, Amir Sabukteginlar hukmronlik qiladilar. G‘aznaviylar siyosiy sulolasiga asos solgan ham aslida ana shu Sabuktegin edi. Shu bilan birga G‘aznaning mintaqa siyosiy markazlaridan biriga aylanishida birinchi salmoqli qadamni Alptegin qo‘ygani ham esdan chiqarmaslik kerak.

Zikr qilinganidek, Alptegin somoniyalar bilan aloqani uzgan bo‘lishiga qaramay, somoniyalar G‘aznada mujassamlashgan va quloq yoyib borayotgan siyosiy-harbiy kuchga doimo ehtiyoj sezib kelganlar. Buning yaqqol isbotini Sabuktegin va somoniy Nux II (976—997) o‘rtasida Kesh atrofida bo‘lib o‘tgan uchrashuv (bunda Sabuktegin Nuxni qo‘llab-quvvatlashi haqida va‘da bergan), yo bo‘lmasa 994-yili somoniyning eng ashaddiy dushmanlaridan Abu Ali Simjuriyning tor-mor etilishida Sabuktegin tutgan asosiy o‘rin orqali ko‘rish mumkin. Sabukteginning obro-e‘tibori so‘nggi yillarda shu darajada yuqori bo‘lganki, u

“dinu davlat himoyachisi (Nosir ad-din va ad-davla)” faxriy unvoni bilan mashhur edi. G’aznaviylarning ham rasman, ham amalan siyosiy kuch sifatida tan olinishi 996 yilga to’g’ri keladi. Yuqorida ko’rib chiqilganidek, qoraxoniylar bir necha marta Buxoroga tahdid soladilar.

Tilga olingan yili esa Sabuktegin somoniylarni qoraxoniylar “changali”dan saqlab qoladi. Somoniy Nux II raqib oldidagi zaifligini sezgan holda unga murojaat qiladi. Sabuktegin esa Buxoroni qo’lga olib, qoraxoniylar bilan kelishuvga imzo chekadi. Bunga ko’ra Amudaryodan janubda joylashgan barcha viloyatlar Sabukteginning nomiga muhrlanadi. Uning vafotidan (997) keyin avvaliga taxtga bir oz muddat uning o’g’li Ismoil va 998-yildan esa boshqa farzandi Mahmud chiqadi.

G’aznaviylar qudrati va shuhratini oshirgan hukmdor ham aslida ana shu Mahmud hisoblanadi. Chunonchi, uning xukmronligi davrida (998—1030) Xorazm, Xuroson, Seyiston, Kobul, G’azna, Shimoliy Xindiston kabi viloyatlar va makonlar g’aznaviylar izmida bo’lgan. Mahmudning o’limidan so’ng taxtga uning o’g’li Muhammad o’tiradi, vaholanki, undan katta o’g’li (Mas’ud) ham bor edi. U zamonda yozilgan manbalar sharhiga ko’ra, Mahmud taxtni kichik o’g’li Muxammadga vasiyat qilish bilan birga, unga “Akan Mas’ud bilan qarama-qarshilikka borma, agar u senga qarshi chiqsa, urushib yurma, (bekor) nobud bo’lasan”, degan. Haqiqatan ham tez orada Mas’ud va Muhammad o’rtasida muxolifat yuzaga keladi. Mas’udning Muhammaddan ustun bo’lganligini zamondosh tarixchilar ham tan oladilar. Xullas, shu yilning o’zidayoq Mas’ud taxtni egallaydi.

Davlatning oliy hukmdori - Amir bo’lgan Boshqaruv tizimi dargoh va devonlarga bo’lingan. Dargohda faoliyat ko’rsatgan hojiblar xizmati rivojlanib, **ulug' hojib , saroy hojibi , navbatchi hojib** va boshqa shakllarda bo’lgan Ulug' hojibning mavqeyi davlat miqyosida katta bo’lgan . Rasmiy marosimlarda u oliy hukmdorga eng yaqin joyni egallagan, jiddiy harbiy yurishlarda qo'shinning

mas'uliyatli qismiga boshchilik qilgan , maxsus saralangan qismlar tayyorgarligini tekshirib turgan. G'aznaviylar davri boshqaruv o'zining murakkabligi bilan diqqatni jalb etadi. U ko'p jihatdan somoniylar, qoraxoniylar zamonidagi davlat boshqaruvi tizimlariga yaqin va o'xshash. Bu tabiiy xol. Chunki ilgari ham ta'kidlab o'tganimizdek, har qanday boshqaruv tizimi (shakli) mavjud ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sharoitga bog'liq bo'ladi.

Boshqa tomondan esa g'aznaviylar hukmronligi ostida bulgan Xuroson, Seyiston, Kobul, G'azna kabi viloyatlar mintaqaning ajralmas tarkibiy qismlari bo'lib kelganliklarini nazarda tutsak, boshqaruvchilik taraqqiyotidagi o'xshashliklar, yaqinliklar sababi ma'lum bo'ladi. Demak, boshqaruv tizimining markazida dargoh va devonlar (vazirliklar) turgan. Avvallari ham ko'rilganidek, dargohga oliy hukmdor (G'aznaviy hukmdorlar "Amir" unvoniga ega bo'lganlar) hayoti va faoliyati bilan aloqador xizmatlar, amallar kirgan. Ular orasida "hojiblik" xizmati alohida e'tiborga loyiq. G'aznaviylar davri bo'yicha manbalarda biz hojiblikning quyidagi shakllariga duch keldik: ulug' hojib, saroy hojibi, navbatchi hojib, hojib-jomador.

Ulug' hojib nafaqat boshqa hojiblar orasida, balki umuman mamlakat va davlat hayotida alohida mavqega ega bo'lgan. Bunga ishora beruvchi bir necha misollar keltiramiz. Mahmudning o'limidan keyin Muhammadning taxtga o'tirishiga bosh-qosh bo'lgan va, qisqa muddatga bo'lsa-da, boshqaruv ishlarini o'z ixtiyorida mujassamlashtirgan ham ulug' hojib Ali Karib bo'ladi. Rasmiy marosimlarda ulug' hojib oliy hukmdorga eng yaqin joyni egallagan. Unga g'oyat muhim vazifalar yuklatilgan. Katta ahamiyat kasb etuvchi janglarda ulug' hojibga qo'shinning eng salmoqli va mas'uliyatli qismiga boshchilik qilish vazifasi yuklatilgan. Masalan, oliy hukmdor markazni boshqarsa, sipohsalor o'ng qanotga, ulug' hojib esa chap qanotga qo'mondonlik qilgan. Ulug' hojib o'ta jiddiy harbiy yurishlar, maxsus saralangan qismlarni tekshirish, ta'minotini joyiga ko'yish

tadbirlarida ham faol bo‘lgani ma’lum.³⁰ Oliy hukmdor va ulug‘ hojiblararo munosabatlar nechog‘lik bo‘lganligini shundan ham ko‘rish mumkinki, Mas’ud ulug‘ hojib Ali Karibga yo‘llagan bir maktubida unga “fozil (ulug‘) hojib, birodar” deb murojaat qiladi. Saroy hojibining vazifasi tushunarli — u saroy eshikog‘asi bo‘lgan.

Hojibga kelsak, hojiblik, umuman olganda, qandaydir bir ijtimoiy-siyosiy tabaqa sifatida ko‘proq namoyon bo‘ladi. Faraz qilish mumkinki, o‘z davri uchun hojiblik ritsarlik tushunchasiga yaqin bo‘lsa ajab emas. Masalan, manbalarda shunday ma’lumotlarga ham duch kelamizki, ular kengroq mulohaza qilinsa, mazkur faraz beasos emasligi ravshan. “Tarixi Mas’udiy”da o‘qiymiz: “Amir Abdurazzoq... viloyat amirligi xal’atini kiydi... Uning ikki g‘ulomiga esa qora (chakmon) berdilar, hojiblik uchun”. “Hojib Badr va hojib Erteginlarga ikkita qimmatbaho xalat berdilar. Badrga ulug‘ hojiblik (xal’ati), Erteginga esa g‘ulomlar boshlig‘i (xal’ati) berildi”³¹. Hojiblar bir vaqtning o‘zida shihna yo sipohsalor mansabiga ega bo‘lganlarini ham eslatib o‘tish joizdir. (Hojiblar odatda qora chakmon va ikki uchli kulox kiyib yurganlar.) Dargoh faoliyatida sipoxdor (saroy xizmatchisi),

davotdor (oliy hukmdor shaxsiy xujjatlari, yozuv-chizuvi bilan bog‘liq ishlarga boshqosh xizmatchi),

pardador (mahram, sir saklovchi, pinhona vazifalarni bajaruvchi),

martabador (saroydagi O‘rta darajadagi amaldor), farrosh (saroydagi kichik xizmatchilardan), xazinachi, jomaxona (kiyim-kechak saqlanuvchi xona) boshlig‘i kabi mansab va xizmatlarning ham o‘z o‘rni bo‘lgan. Devonlar (vazirliklar) ijroiya idoralari bo‘lganligi o‘z-o‘zidan tushunarli.

³⁰ Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. T.: “Sharq”, 2001. 114-bet.

³¹ Abu-l-Fazl Bayhaqiy. Tarixi Ma’sudiy forschadan A.K.Anders tarjimasi T.: 1962 44-bet

Manbalarda bunday devonlardan beshtasining nomi tilga olinadi: Vazir devoni, ya'ni bosh vazir devoni; harbiy ishlar devoni; diplomatik va boshqa rasmiy tadbirlar, xujjatlarni rasmiylashtirish, tuzish devoni; hisob-kitob, ya'ni moliya devoni; pochta-xabar devoni. Mazkur devonlarning vazifalari haqida ilgari ham so'z yuritganimiz uchun bu borada yana to'xtalib o'tirmaymiz.

Garchi manbalarda mushriflik (davlat nazorati), muxtasiblik devonlari tilga olinmasa-da, ammo joylarda shunday xizmatlar mavjudligidan ularning markaziy devonlari ham bo'lgan, degan xulosa chiqadi (masalan, shahar mushrifi, viloyat aniq). Viloyat boshlig'ini voliy deganlar va uni oliy hukmdor tayinlagan. Viloyat ijroiya boshqaruv ishlarini amid olib borgan. Shahar boshlig'ini rais deb ataganlar.

Shahar miqyosida shihna, kutvol (qal'a komendanti), sohibi devon (ma'muriy boshqaruvchi) kabi amaldorlar ham faoliyat ko'rsatganlar. Bilamizki, g'aznaviylar, ayniqsa, Mahmud davrida qudratli qo'shinga ega bo'lganlar. Oliy qo'mondonlik hukmdorning O'z ixtiyorida bo'lganligi tabiiy. Bosh mushrif mansablari bo'lganligi qo'mondonlikka (sipohsalor) esa sulolaning eng ishonchli, asosan, shu xonadon namoyandasi tayinlangan. Masalan, Mahmud bunday mansabga ukasi Muhammad Yusufni loyiq topgan. Yuqori darajadagi harbiy lashkarboshilar salor, O'rta darajadagilari sarhang deyilib, oxirgilari hayllarga (bir necha o'n otliqlar- ga) boshchilik qilganlar. Harbiylar o'z pochta, qozilik xizmatlariga ega edilar. G'aznaviylarning ham saralangan jangovor qismlari (gvardiya) bor edi, ammo ular to'g'ridan-to'g'ri dargoh ixtiyorida bulgan.

Dargohda saroy xizmatchisi sipohdor, oliy hukmdorning shaxsiy hujjat, xat ishlari bilan shug'ullangan davotdor, pinhona vazifalarni bajaruvchi pardador, xazinachi kabi xodimlar faoliyat ko'rsatgan. G'aznaviylar davlatida: bosh vazir devoni, harbiy ishlar devoni hujjatlarni rasmiylashtirish va diplomatik ishlar devoni, moliya devoni pochta - xabar devoni, mushrif, muhtasib kabi devonlar bo'lgan. G'aznaviylar davlatida hujjatlarni rasmiylashtirish devoni alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Harbiy devon huzurida somoniylar davlati kabi devoni arz

faoliyat ko'rsatgan. Devoni arz qo'shinni oziq - ovqat, kiyim - kechak bilan ta'minlash ishini bajargan. G'aznaviylarda devoni arz ahamiyati kuchaydi. G'aznaviylar davlatida viloyat boshliqlari voliy deb atalgan. Voliylarni oliy hukmdorning o'zi tayinlagan. Viloyatlardagi ijroiya ishlarini amir olib borgan. Shahar boshliqlari - rais deb atalgan . Shahar miqyosidagi lavozimlar - shihna, kutvol bo'lgan. Shihna mirshab vazifasini bajargan, uning ixtiyorida alohida harbiy qism bo'lgan.

G'aznaviylar davlatining tashqi aloqalari haqida gapiradigan bo'lsak, elchilarni kutib olish marosimi manbalarda alohida keltirib o'tilgan. 1032-yilda Mas'udning Arab xalifaligining oliymaqom elchisini qabul qilishi haqida. "Tong yorisha boshlagan zamon to'rt ming saroy g'ulomi (ya'ni gvardiya) amirlik saroyining ikki tarafidan bir necha qator bo'lib saf tortdilar. Ikki ming nafari ikki uchli kuloh (kiyib) va o'nta popugi (osilib turgan) kamar (taqib) olgandilar. Har bir g'ulom kumush gurzi (tutib turardi). Qolgan ikki ming (g'ulom) to'rtta par qadalgan kulohda edilar. Bellaridagi kamarga o'qdon, qilich, kamonni tugib turuvchi qayish mahkamlangan, har bir g'ulomning qo'lida kamon va uchtadan o'q. Barcha g'ulomlar qimmatbaho nafis ipaklikdan (tikilgan) chakmonda edi. Xos g'ulomlardan uch yuztasi amir (ya'ni oliy xujmdor) o'tirgan supa yaqinida har tomondan saf tortib turardilar.

Ularning kiyimlari yanada ko'rkam (bo'lib) (boshlarida) ikki uchli kuloh, kamarlari zardan, gurzilari ham zarrin. (Oralaridan) bir necha kishining kamarlari javohirlar bilan bezatilgandi. Yana ellik- oltmish nafar (gulom) nariroqda Dilmon saroyi o'rtasida qalqon bo'lib turardilar. Dargoh ulug'lari, viloyatlar voliyolari, hojiblar loda, zar kamarlar taqib olganlar. Saroy tashqarisida martabadorlar turardilar. Fillarning soni ham ko'p edi. Lashkar esa shay bo'lib, qimmatbaho nafis ipaklik kiyimda, soyabonlar (ostida), (xar bir qism) o'z qurol-yarog'i, belgilari bilan bir-birlariga qarama-qarshi tomonlarga saflangandilar, (xuddi) shular orasidan elchi o'tishi kerak edi. Elchini boshlovchi bezatilgan otlarni olib

ko'pchilik hamrohligida (tashqariga qarab) yuradi. (U yerda) elchini otga mindiradilar. (So'ng) uni boshlab keldilar. (Shunda) burg'u, katta-kichik nog'oralar ovozi yangrab ketdiki, go'yo qiyomat kuni kelganday. Elchini ana shunday ulug'vor takalluf bilan kuzatib bordilar.

Bunday (qabul marosimini) u umrida ko'rmagandi. G'oyatda hayratga tushgan holda u ko'shkka qadam qo'ydi. Amir (ya'ni oliy hukmdor), Olloh undan rozi bo'lsin, supa oldida taxtda o'ltirardi. Xalifa elchisi salom berdi. U qora (kiyimda) edi. Javobni ulug' xoja Ahmad Hasan berdi. Amir yonida undan bo'lak hech kimsa o'ltirmagandi. Qolgan barcha tik turardi. Hojib Abu Nasr elchining tirsagidan tutib o'ltirishga undadi.”³².

Saljuqiylar davlati boshqaruv tizimi. Saljuqiylar davlati 1040-yildan 1157 - yilgacha mavjud bo'lgan. Davlat tepasida oliy hukmdor maqomida saljuqiylar xonadoni namoyandasi turgan. U **Sulton (Sulton ul-a'zam)** unvoniga ega bo'lgan. Uning nomidan xutba o'qilib, tanga zarb etilgan. Taxt otadan bolaga meros sifatida o'tgan. Mulk, yer-suv taqsimlash, muhim davlat va boshqaruv mansablariga tayinlash, davlat kirim-chiqimlaridan boxabar bo'lib turish, qo'l ostidagi amaldorlar va xizmatkorlar faoliyatini nazorat qilib turish uning haq-huquqlari va vazifalari sirasiga kirgan. Shuningdek oliy hukmdor o'z mansabdorlari, xizmatkorlari ustidan tushgan ariza va shikoyatlarni, amaldorlarning daromadi, soliq to'plovchilar, ularga boshchilik qiluvchilarning faoliyatini nazorat qilib borishi kerak bo'lgan.

Mamlakat obodonligi, sun'iy sug'orish tizimlarini barpo etish, ko'priklar qurish, qishloqlarni obod etmoq, ekinlar ahvolidan boxabar bo'lish, qal'alar, yangi shaharlar barpo etish, oliy binolar kurish, katta yo'llar uzra rabotlar (mehmonxonalar) bino etish, madrasalar ochish kabi qator savobli va har qanday davlat rivoji uchun zarur bo'lgan tadbirlarni amalga oshirish ham oliy hukmdor

³² Abul Fazl Bayhaqiyy.Tarixi Ma'sudiy.T.1962., 381-383-betlar

zimmasida bo'lgan".Yuqorida ko'rib chiqilgan davlatlar kabi saljuqiylar davlat boshqaruvi ham dargoh va devonlarga bo'lingan.**Ulug' hojib** dargohdagi sultonga eng yaqin kishi. U dargoh bilan devonlar o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirish, rasmiy qabullarni uyushtirish bilan shug'ullangan.

Horis amirining vazifalari - sulton chiqargan jazo, hukmlarni ijro etishga mas'ul bo'lgan.

Salohdor - saroydagi qurol - aslahani saqlash uchun javobgar shaxs.

A'lamdor - sulton bayrog'ini tutuvchi.

Jangdor sulton va dargoh xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullangan. Saljuqiylarning barcha devonlari bosh vazirga bo'ysungan.

Bosh vazir devonlar, davlatning xazina, moliya, soliq ishlariga mas'ul bo'lgan. Uning faoliyati davlatning tashqi va ichki siyosatidagi barcha sohalarga tegishli edi. Shuningdek, u amaldorlarni ishga olish, ishdan bo'shatish vakolatiga ham ega bo'lgan. Bosh vazir huquqlari nihoyatda keng bo'lgan. U sulton nomidan xorijiy davlatlar namoyandalari bilan muloqot va muzokarada bo'lish huquqiga ega edi. Bosh vazir faqat bir sohada, yer - mulk taqsimlash ishlarida - huquqsiz edi. Mazkur huquq faqat sulton ixtiyorida bo'lgan. Vazir huzurida markaziy hokimiyatning oliy organi - **devoni a'lo** bo'lgan. U bo'lim va devonlardan iborat edi. Bosh vazirning o'zini maxsus vakillari, nazoratchilari bo'lgan.

Saljuqiylar devoni ikki toifaga bo'lingan: sulolaviy va rasmiy. Sulolaviy devon hukmdorga tegishli yer - suv, xazina, mol - mulk masalasi bilan shug'ullangan. Rasmiy devonlar: devoni tug'ro, istifo, ishrob, arz deb atalgan.

1. Devoni tug'ro eng muhim devon, uning boshlig'i bosh vazir o'rinbosari mavqeyiga ega bo'lgan. Devoni tug'ro sulton farmoni, qarorlari, rasmiy hujjatlarini tayyorlash, ularni tasdiqlash uchun taqdim etish, markazdan joylarga rasmiy hujjatlarni yuborish, joylardan markazda qabul qilish, chet ellarga maktublar yuborish, davlat hujjatlarida maxfiylikni ta'minlash ishlariga rahbarlik qilgan.

2. Devoni istifo moliya devoni. Davlat kirim-chiqimlari sulolaviy va rasmiy. Sulolaviy hukmdorga tegishli yer-suv, xazina, mol-mulk masalasi bilan shug'ullangan.

3. Devoni ishrof - davlat nazorati devoni. Ushbu devon moliya - soliq ishlarni, hisoblarni tekshirish, vaqf mulklar ustidan nazorat qilish, sulolaga tegishli yer-suv, qimmatbaho moliya qog'ozlari, zarbxonalar, bozorlar mutasaddilari, soliqchilar, amaldorlar ustidan nazorat olib borgan.

4. Devoni arz- harbiy devon. Qo'shinlarni maosh, oziq - ovqat, kiyim kechak bilan ta'minlash, harbiylarning ro'yxati, tarkibi, soni masalalariga mas'ul devon. Mazkur devon va umuman devonlar tizimi ishi qanday yo'lga qo'yilganini quyidagi misol orqali yaqqol tasavvur qilish mumkin. Lashkardagi biron-bir xizmatchining maoshi oshiriladigan yo qisqartiriladigan bo'linsa, bu haqda, eng avvalo moliya-soliq idoralari bilan kelishib olinishi zarur hisoblangan. Saljuqiylarda otabek lavozimi bo'lgan. Otabek unvoni bosib olingan davlatlarda vazirlik mansabiga teng bo'lgan. Joylarda devonlar bo'limlari faoliyat ko'rsatgan. Istifo devoni bo'limlari markazga soliq yig'ish va boshqa tegishli tadbirlar bo'yicha hisobot berganlar.

Nizomulmulk hukmdorning fuqarolarga munosabatini shunday belgilagan: "Podshohning bir haftada ikki kun zulm ko'rganlarni qabul qilmasdan iloji yo'q. U zulmkorni jazolamog'i, insofga chaqirmog'i, raiyyat so'zlarini o'z qulog'i bilan vositachisiz eshitmog'i kerak. Arzchilar eng muhim so'zlarini ayt- moklari, (hukmdor esa) ular buyicha xukm chikarmog'i lozim. Shunda mamlakatda podshoh ezilgan va adl is- tovchilarni haftada ikki kun qabul qilib, ularning so'zini tinglar ekan, ovozasi tarqaydi. Zolimlar bundan cho'chiydilar, qo'llarini kalta qiladilar".³³

Viloyat boshqaruvi voliy qo'lida bo'lgan. Voliylar o'z hududiga tegishli barcha sohalarga boshchilik qilganlar. Ular huzurida alohida idoralar bo'lgan.

³³ Nizomulmulk.Siyosatnoma T.,Adolat.1995.246-bet

Voliylar hukmdor orqali lavozimga tayinlanganlar. Shahar boshliqlari ham shaharga tegishli barcha masalalarga, harbiy sohadan tashqari, boshchilik qilganlar. Saljuqiylarda shihna lavozimi juda muhim bo'lgan. Shihna tartibni nazoratga olish bilan shug'ullangan. Saljuqiylarda shihna « **harbiy hokim** » deb yuritilgan. Shihna yordamchisi noib bo'lgan. Noib vazifalari: tartibni buzganlarni imomlardan maslahat olib jazolash. Noiblar joylardagi tartibni nazorat qilganlar. Joylarda soliq yig'ish bilan **omillar** shug'ullangan. Mahalliy boshqaruv tizimiga kelsak, viloyat boshliqlari (voliy) ham o'z devonlariga ega bo'lganlar. Voliylarni oliy hukmdor tayinlagan. Ular butun viloyat hayoti bilan bog'liq barcha sohalarga boshchilik qilganlar: moliya, soliq, sud, harbiy ishlar, jazo idoralari voliy nazorati, tasdig'i, izmida faoliyat ko'rsatganlar. Tuman, shahar miqyosidagi boshqaruv tizimi ham viloyatlarniki kabi bo'lgan, faqat harbiy faoliyat bundan mustasno edi³⁴

Xorazmshohlar davlat boshqaruvi. Xorazm Somoniylar davrida ularga tobe viloyat hisoblanardi. X asr oxiri – XI asrning boshlariga kelib Xorazm hukmdori Ma'mun I va uning o'g'li Ali ibn Ma'mun Somoniylar davlati qulaganidan so'ng mustaqil davlat tuzishga harakat qilib ko'rdilar. Xususan, 996-yilda Shimoliy Xorazm hukmdori Ma'mun ibn Muhammad ikki qismga bo'linib ketgan davlatni birlashtirib xorazmshoh unvoni oladi va Urganchni o'z poytaxtiga aylantiradi. Ammo, Movarounnahrda Qoraxoniylar va Xurosondagi G'aznaviylar davlati oldida Xorazm davlati juda kuchsiz bo'lib, ko'p hollarda Mahmud G'aznaviy va uning o'g'li Ma'sudga qaram edi. Xorazmning mustaqil davlat sifatida shakllanishi va rivojlanishi Anushteginiy-Xorazmshohlar sulolasi davriga to'g'ri keladi.

³⁴ Agadjanov S.G. Seldjukidi iTurkmeniya v XI-XII vv.-Ashxabad: Ilim,1973

Ushbu sulolaning asoschisi yoki birinchi vakili Anushtegin kelib chiqishi jihatidan o'g'uz turklaridan bo'lib, yoshligida Garjiston (Gurjiston) da yashagan va yollanma jangchi (mamluk) bo'lgan. Saljuq sultoni Malikshoh I davrida Anushtegin tashtdorlik mansabiga (sulton houzlari va hammomlari ashyolari xazinachisi) ko'tarilgan edi. Manbalarning ma'lumot berishicha, tashtdorlik mansabiga sulton o'zining ishonchli odamlarini tayinlar edi va ko'p o'tmay Anushtegin sultonning yaqinlaridan biriga aylanadi. Tarixiy manbalarda Xorazmshohning unvoni «Podshoh Qutbid-dunyo vad-din Abul-fath Mu'in Amiral-mo'minin» («Dunyo va din qutbi, g'alabalar otasi Mo'minlar amiri-xalifaning yordamchisi») deb ulug'lanishi Qutbiddin Muhammad Saljuqiylarga tobe bo'lsa-da, mavqei ancha baland bo'lganligidan dalolat beradi. Natijada 1076 yilda Sulton Malikshoh Anushteginni Xorazm hokimi etib tayinlaydi. Anushtegin Saljuqiylarga tobe bo'lib hokimiyatni boshqaradi va 1097 yilda vafot etadi. O'sha yili uning o'g'li Qutbiddin Muhammad (1097-1128) Xorazm voliysi qilib tayinlanadi. Anushteginiylar davri boshqaruvida ham ilgari ko'rib o'tilgan sulolalar boshqaruvidan farqli tizim bo'lmagan. Zero, bir tomondan, sulolalar o'zgarishi bilan voqelik, ya'ni makon va an'analar o'sha-o'shaligicha qolavergan, ikkinchi tomondan, anushteginiylar ma'lum muddat saljuqiylar dargohi bilan nihoyatda yaqin munosabatda bo'lganliklari uchun ulardagi boshqaruv tizimi tajribasini o'zlashtirishlari qiyin bo'lmagan.

O'rta asrlar mualliflari ma'lumotlari asosida tadqiqotlar olib borgan Z.Buniyadovning xulosalariga ko'ra, xorazmshoh Takash o'z fuqarolariga nisbatan adolatli bo'lgan. U boshqa sultonlarga nisbatan qobiliyatli, yirik diplomat va zukko lashkarboshi edi. Shu bois bo'lsa kerakki, Xorazmshoh – Anushteginlar davlatining nisbatan kuchayishi, Aloviddin Takash faoliyatining ma'muriy idora boshqaruvi o'zining qat'iyatligi va tartib intizomi bilan ajralib turadi.³⁵

³⁵ Ўзбекистон тарихи. Р. Муртазаева таҳрири остида. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003.80-bet

Lekin Takashning katta xatosi shunda ediki, u o'zining xotini Turkon xotun mansub bo'lgan qipchoqlar qabilasiga katta erkinliklar berdi, ularni doimo qo'llab-quvvatladi. Turkon xotun (Uning shaxsiy muhrida «Ismat ud-Dunyo vad-Din Ulug' Turkon malika niso al-olamiyn», «Dunyo va uning pokdomoni, Ulug' Turkon, olam ayollarining malikasi» degan yozuv bitilgan edi) ularga tayanib katta hokimiyatga ega bo'ldi, o'z homiyligidagi odamlarning yuqori lavozimlarni egallashini ta'minladi. Natijada bu alohida turk harbiy-feodal tabaqasi paydo bo'lishiga olib keldi va amalda xorazmshohlar davlatining inqiroziga sabab bo'ldi.

1200-yilning avgust oyida Xorazmshohlar taxtiga Takashning o'g'li Qutbiddin Muhammad o'tirdi (1200-1221 yy) va otasining Aloviddin laqabini qabul qildi. U taxtga o'tirishi bilanoq ayrim muammolarga duch kelgan bo'lsa-da, ularni zudlik bilan bartaraf etib, 1203 yilda qoraxitoylarning yordami bilan Xurosonni bosib oldi. Undan keyin esa Hirot va uning atroflarini egalladi.

Aloviddin Muhammad 1207 yilda Movarounnahrda yurish qilib, Buxorodagi Sanjar qo'zg'olonini bostirdi va Buxoroni egalladi. Xorazmshoh 1210-yilda qarluqlar bilan ittifoq tuzib qoraxitoylar ustiga yurish qildi. Bu yurish Xorazmshohning g'alabasi bilan tugadi va u qoraxitoylarning O'zganddagi boy xazinasini qo'lga kiritdi. Umuman, Aloviddin Muhammad 1210 va 1212-yillarda qoraxitoylarga ikki marta qaqshatqich zarba berib ularni butunlar tor-mor etdi. Buning natijasida uning obro'yi oshib ketib ikkinchi Iskandar, ikkinchi Sulton Sanjar laqablarini olishga musharraf bo'ldi.

Aloviddin Muhammadning say'i-harakatlari tufayli 1217-yilga kelib butun Movarounnahr, Ozarbayjon, Eron, Xurosondan Hindistongacha bo'lgan yerlarda Xorazmshohlar hukmronligi o'rnatildi. Demak, davlat boshqaruvi ikki tizimdan: dargoh va devonlar majmuidan iborat bo'lgan.

- **Ulug' hojib** Ulug' hojib hukmdorning eng yaqin kishilaridan tayinlangan . Hojib maxsus muzokaralar olib borish , vazirlar faoliyatini nazorat qilish ishlari bilan shug'ullangan. Ustozdor podshohlikdagi xo'jalik ishlariga mas'ul xodim.

Sulton chaqirganda birinchi xozir bo'ladigan shaxs ham ustozdor hisoblangan. Oliy farmon olgan ustozdor shunga kŷra tegishli xiz- matlarga buyruk bergan va uning gapini ikki qilish bo'lmagan. U dargohning barcha masalalari bilan shug'ullangan va bundan tashqari bosh xazina mablag'laridan ham istifoda etgan holda nonvoyxona, oshxona, otxona, saroy xizmatchilarining xarajatlarini qoplar edi. Shuningdek, u ushbu mablag'dan maosh berish va boshqa xarajatlar uchun ham foydalangan. Nasaviyning yozishicha, bunda ustozdor ulardan tilxat olgan. Tilxatga vazir, mustavfiy, mushrif, nozirning muxrlari bosilgan bo'lishi kerak edi. A'yonlar xarajatiga ketgan mablag' haqidagi tilxat ariz muxri bilan tasdiqlanishi kerak bo'lgan³⁶

-Amiri oxir - Oliy hukmdorga tegishli otlar parvarishi, ovlarni o'rniga qo'yish tadbirlarini uyushtirish bilan shug'ullangan. Ushbu mansabi ham mas'uliyatli hisoblanib, uncha-muncha kishi bu lavozimga tayinlanmagan. Chunki uning bo'yniga sultonga tegishli otlar parvarishi yuklatilgan. Otlarning soni esa 30 minggaacha bo'lgani ma'lum.

-Tashtdor-Oliy hukmdorga yaqin kishilardan bo'lgan . Tashtdorga hukmdor o'zining eng maxfiy fikrlarni topshirgan edi. Anushtegin saljuqiy Sulton Malik saroyida xuddi mana shunday tashtdor mavqeiga erishganda, unga mazkur mansabga viloyatda mutanosib keluvchi shihnalik, ya'ni Xorazm shihnaligi lavozimi beriladi. Chunki tashtdor xizmati bilan bog'liq barcha xarajatlar Xorazm viloyatidan tushadigan soliqlar bilan qoplanardi.

-Qissador-Oliy hukmdorga tushgan arz, shikoyatlarni topshirish, keyin javoblarni tegishli joylarga berish bilan shug'ullangan. Shuningdek, davotdor, bayroqdor kabi dargoh lavozimlari ham bo'lgan. Bosh vazir devonlar tizimiga boshchilik qilgan. Unga barcha amaldorlar, noiblar, harbiylar bo'ysungan.

³⁶ Shahobiddin Muhammad annasaviy, Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti, T., 1999.

-Bosh vazir oliy hukmdorning birinchi maslahatchisi bo'lgan. Amaldorlarni ishga tayinlash, bo'shatish, maosh, xazina, soliq tizimini nazorat qilish ishlari bosh vazir qo'lida edi. U rasmiy tadbirlar, muzokaralarda oliy hukmdor nomidan ish olib borgan. O'z faoliyatida bosh vazir faqat oliy hukmdor oldida javobgar edi. Devonlar tizimi saljuqiylar kabi devoni tug'ro, devoni arz, devoni istifo va devoni ishroflardan iborat bo'lgan. Saljuqiylardan farqli Xorazm shohlarda yana bir devon devoni xos faoliyat ko'rsatgan.

-Devoni xos . Mazkur devon hukmdor sulolaga tegishli yer - suv, mol-mulk ishlari bilan shug'ullangan. Lashkar kuchli harbiy qo'shin va oliy hukmdorning shaxsiy gvardiyasi (haros) dan iborat edi. Harbiy nazoratchi, viloyat qo'shin boshlig'i sohibi jaysh , askar qozisi lavozimlari bo'lgan.

Podshohona ovlarni o'rniga qo'yish tadbirlarini amiri shikor uyushtirgan. Dargohda shuningdek chashnigir-sultonga beriladigan ovqat, ichimliklarni tekshirib ko'ruvchi, jomador, sultonning kotibi (davatdor), sharobdor, farrosh, bayroqdor (amiri alam), xos xizmatkorlar boshlig'i (maliki xavas) kabi xizmat va vazifalar ham bo'lgani ma'lum.

Xorazmshohlar davlatida markaziy boshqarish apparati al-majlis al-faxri deb atalib, uni oliy darajadagi mansabdor vazir boshqargan. Vazir devon mansabdorlari (asxab-ul-davovin) boshlig'i ham edi. Ularga nafaqa (arzak), ish haqi (mavojib) to'lash, soliq boshqarmasini, davlat hazinasini nazorat qilish ham uning vazifasi hisoblangan.³⁷

Vazirlik mansabi davlatda juda katta ehtirom bilan hurmat qilingan. Chunki mamlakatning moddiy ahvoli, aholining tartib-intizomga rioya etishi, amaldorlarning haqqoniy xizmat qilishi, qolaversa davlat boshlig'ining siyosiy va ma'naviy mavqei ana shu vazirning ishbilarmonligi, mamlakatni boshqarish qoidalarini bilishi va unga amal qilishi, hayot tajribasiga ega bo'lishi bilan bog'liq

³⁷ Бунёдов З. Ануштагин- Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). А. Аҳмад ва М. Маҳмуд таржимаси. Т., 1998.56-bet

edi. Shariat qoidalarini yaxshi biladigan, katta hayot tajribasiga ega bo'lgan, sadoqat bilan xizmat qilaoladigan shaxslarning vazirlik mansabiga tayinlanganlar. Vazirlarning sadr, dastur yoki xoja'i buzrug unvonlari bo'lib, ular mansabining belgisi siyoxdon (davlat) va maxsus matodan to'qilgan salla edi.

Vazirlik mansabiga odatda ajdodlari mansabdor bo'lgan arab yoki fors millatiga mansub bo'lgan shaxs tayinlangan. Turkiy xalq vakillari bu mansabga tayinlanmagan. Vazir arab yoki fors tilini bilishi, ma'muiy ishlarga qobiliyatli bo'lishi, saroy axloq-odob qoidalarini bilishi zarur edi. Vazirlar qabul paytida shohning o'ng tomoniga qo'yilgan mahsus kursida o'tirgan. Xorazmshohlar davlatida vazir mansabi birinchi marta sulton Otsiz davrida joriy etilgan. Xorazmshohlar davlati tarixida o'z vazifasini vijdonan bajargan, mamlakatda sadoqat bilan xizmat qilgan va tarixda yaxshi nom qoldirgan vazirlar ko'p bo'lib, ulardan eng mashhuri sulton Takash hukmronligi davrida vazirlik qilgan Nizom-al-mulk Shams-ad-din Mas'ud ibn Ali ad-Xaraviy edi. Uning davrida Marv, Urganch kabi shaharlarda masjid, madrasa va qo'lyozmalar saqlanadigan joy qurdirganligi tarixda ma'lum.

Mo'g'ullar bosqinchiligi arafasida sulton Alovuddin Muhammad vazirlik mansabini bekor qilib, uning o'rniga oltita vakildorlardan iborat kengash tuzgan edi. Bu Xorazmshohlar davrining oxirlarida tuzilgan davlat kengashi bo'lib, muhokama etilgan har bir masala yakdillik bilan qabul qilinishi va qarorda kengash a'zolari hammasining imzosi bo'lishi kerak edi. Davlat musulmon olamida qabul qilingan qonun chiqaruvchi-dargoh hamda ijroiya-devonlar tizimida boshqarilgan, davlat boshlig'i sulton hokimiyatining huquqlari hech bir qonun-qoida bilan chegaralanmagan edi. Saltanatni hokimlar, noiblar, vazirlar, lashkar boshliqlaridan iborat kuchli harbiy aslzoda guruhlar, mustavfiy (daftardor hisobchilar), qozilar, sadrlar va boshqa ko'plab saroy mansablaridan iborat ulkan arkoni davlat doirasi qurshab turar edi.

Vakildorlar Davlat kengashi tuzilishiga sabab ko'chmanchi mo'g'ullar hujumi xavfining kuchayganligida edi. Lekin mo'g'ullar xujumi xavfiga qarshi vakillar kengashi birorta jiddiy qaror qabul qilganligi yoki chora-tadbir ishlab chiqqanligi haqida ma'lumotlar yo'q. Mamlakatdagi oliy mansablardan yana biri-bu viloyatlar va nohiyalar vazirlari edi. Bu mansab faqat Xorazmshohlar davlatida bo'lgan. Bunday vazirlar odatda siyosiy jihatdan muhim hisoblangan viloyatlarga, shaharlarga va nohiyalarga tayinlanib, ular shohning maxsus topshiriqlarini bajarganlar.

Oxirgi Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi har bir shaharga vazir tayinlangani tarixdan ma'lum. Xorazmshohlar davlati markaziy boshqarish apparatida siyosiy ahamiyati jihatidan uchinchi o'rinda turadigan mansab-buyuk hojib mansabi edi. Odatda bu mansabga turk urug'-qabila zadogonlari vakillaridan tayinlangan. Hojiblar shohning shaxsiy xizmatida bo'lib, saroy tantanalari tartibini nazorat qilishgan, shaxsan shohga aloqador masalalar yuzasidan unga axborot berib turgan, uning maxsus topshiriqlarini bajargan va unga doimiy hamrohlik qilgan.

Shoh ixtiyoridagi maxsus topshiriqlarni bajaruvchi hojiblar ustidan nazorat ishlarini amalga oshirish kotib-al-kabir (buyuk hojib)ga yuklatilgan. Masalan, Xorazm shohlaridan Nizom-al-Mupini o'zboshimchaligi, xazina mulkini talon-taroj qilayotganini tekshirish va aniqlash uchun yuborgan. Hojib Erboz vazirotni devoni daftarlarini, mol-mulk ro'yhatini (jaroidni), arxivni (mahzan), kotiblarni va moddiy tassarrufining faoliyatini tekshirish vakolatini olgan edi. Sulton Jaloliddin Manguberdi Hojib-al-xoss Xonberdini qo'zg'olonchilar boshlig'i Bandar, Hojib al-xosa Badriddin Tutakchi Sulton Jaloliddin nomidan ismoiliylar bilan muzokaralar olib borish uchun yuborgan. Xorazm davlatida Hojiblar sulton-shohlarning maxsus topshiriqlarini bajargan va hattoki uning nomidan qo'shni davlatlar hukmdorlari

bilan muzokaralar olib borgan hamda elchilik vazifasini o'tagan. Hattoki xalifa Munta'sir elchisini qabul qilgan.³⁸

Xorazmshohlar davlatining aholisi va ularning qatlamlari haqida yozma manbalar (Muhammad Bag'dodiy) qo'yidagicha ma'lumot beradi.

1. Sayidlar – payg'ambar avlodlari sanalganliklari tufayli hukmdorlar ularni qattiq hurmat qilganlar hamda ularni har tomonlama, ayniqsa, moddiy jihatdan doimo qo'llab-quvvatlab turganlar.
2. Imomlar va olimlar – ularning maslahatlari va ko'rsatmalariga davlat ishlariga amal qilingan bo'lib, ijtimoiy hayotda bunday shaxslarning mavqei ancha ustun bo'lgan.
3. Qozilar va xokimlar – asosiy qonun chiqaruvchilar bo'lib, ular shariatning aholi ustidan nazoratini amalga oshirganlar.
4. Tasavvuf vakillari – islom dinida noortodoksal oqim vakillari bo'lib, faqirona hayot kechirganlar. Ular orasidan chiqqan donishmandlar va mashoyixlarning ko'pchiligi xalq tomonidan e'zozlangan. Hukmdorlar bunday shaxslarni hurmat qilib, ularning duosini olib turgan.
5. Oqsoqollar – qishloq, qasaba, urug'-qabila boshliqlari.
6. Amaldorlar va sipohiyar – hukmdorlarning joylardagi noiblari qo'li ostida xizmat qiluvchi shaxslar.
7. G'oziyar – islom dini uchun kurashuvlar.

Xorazmshohlar o'z davrining eng qudratli lashkariga ega bo'lganlar. Qoraxitoylarga qarshi harbiy yurishda Sulton Muhammad ixtiyorida 600 ming otliq askar bo'lgani ma'lum. Xuddi shunday kuch Bag'dod yurishiga tashlangan. Mo'g'ullar bosqini arafasida esa xorazmshohlar taxminan 600 ming otliqni o'z qo'l ostilarida birlashtirish imkoniga ega edilar.³⁹ Albatta, bu yerda piyoda askarlar,

³⁸ O'zbekiston tarixi. R. Murtazayeva tahriri ostida. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.40-b

³⁹ Sagdullayev A.S. va boshq. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: Akademiya, 2000.64-b

turli ko'makchi qismlar nazarda tutilmayapti. Bunday ulkan lashkarni tayyorgarlikda tutish, ta'minotidan xabardor bo'lishning o'zi bo'lmagan. Yana shu narsa ma'lumki, harbiy qismlarda ayollar ham erkaklar bilan barobar jang qilganlar.

Bu qo'shinlarda odatdagi qurollardan tashqari qamal mashinalari ham bo'lgan. Bular orasida harakatchan minorlar, taranlar, hujum narvonlari ajralib turgan. Xorazm yaxshi tayyorgarlik ko'rgan doimiy armiyaga ega edi. Doimiy armiya asosan turklardan tuzilgan bo'lib, qo'shin bo'linmalar qabilachilik asosida tuzilgan edi. 1195-yilgi harbiy reestrga ko'ra Xorazmshohlar 170 mingdan ziyod doimiy armiyaga ega edi. Ba'zi tarixiy ma'lumotlarda Xorazmda 400 mingli armiya borligi qayd etilgan. Xorazmshoxlarning shuningdek qullardan tuzilgan shaxsiy gvardiyasi (xaras) ham bor edi. Xaras ko'proq savdo karvonlarini kuzatib borgan. Qo'shinlarning bosh boshqarmasi devon-aljoyish bo'lib, uni shoh tayinlaydigan sohib-al-joyish (devon)- mohib devon al-ard boshqargan. Ba'zi manbalarda umum harbiy boshqaruv organi divan-i arz dar jumlai- mamolik deb ataladi. (Rashid-ad-din Vad-vad to'plamida).

Devon-al-joyish harbiylarga berilgan iqto ishlarini, hamma unvondagi harbiylarga maosh va boshqa to'lovlarni, qo'shinlarni va ularning qurollanishi ro'yxatga olish, xamma jangchilarga maoshni (arzaq) o'z vaqtida to'lanishini, ularning barcha zarur anjomlar bilan ta'minlanishini tekshirib turgan. Buyuk viloyatlarda mahalliy harbiy boshqarmalar ham tuzilgan. Xorazmshohlar armiyasidagi eng muhim mansablardan ikkinchisi harbiy nazoratchi- nazir-al edi. U ham sohib-al-divon al-joyish nazorati ostida ish olib borar edi. Armiya qo'mondonlari qayd yoki muqaddam deb atalib, eng ish bilarmon, epchil amirlar (lashkarboshilar) bu mansabga tayinlangan. Ba'zi hollarda viloyat hokimlari ayni bir vaqtning o'zida mahalliy qo'shinlarga ham qo'mondonlik qilgan. Viloyat qo'shinlari qo'mondoni ham sohib-al-joyish unvoniga ega edi. Yangi viloyatlarni bosib olgandan so'ng, shu hudud yerlari amirlarga iqto tarzida in'om qilingan va

eng katta xizmat ko'rsatgan amirlarga amir-ul-umaro unvoni berilib, shu hududiga amirlar oqsoqoli etib tayinlangan. 10 mingacha otliq askarlar qo'mondoni molik deb atalgan. Ularning ba'zilariga jangda jonbozlik ko'rsatgani uchun xon unvoni berilar edi.

Xorazmshohlar armiyasida aloqachilar, razvedkachilar bo'lib, ularni go'vushlar va josuslar deb atashgan. Josuslar g'animning qo'shinlari holati, uning harakati va maqsadlari haqida ma'lumotlar to'plaganlar. Armiyada diniy ishlarga qozi-yi- xasham yoki qozi-al-askar rahbarlik qilgan. Xorazm qo'shinlari yaxshi qurollangan bo'lib, odatdagi qilich, nayza, kamon kabi qurollardan tashqari manjaliq (katapul't) tosh otar kabi hujumda ishlatiladigan narvonlari, to'sinlardan ham keng foydalanganlar. Xorazmshohlar istehkomlar va qat'alar qurishga katta e'tibor berganlar. Xorazmda har tomonlama baland va mustahkam qurilgan Ilal, Xo'rondiz, Qohri, Ardaxn kabi qal'alar bo'lganligi haqida tarixiy ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Qal'alardagi jangchilarga mustahfizlar qo'mondonlik qilgan. Xorazmshohlar davlatida politsiya va jazolash vazifalarini maxsus otryadlarga rahbarlik qiluvchi shixnalar bajargan. Bu mansabga asosan turk harbiy boshliqlari - amir etib tayinlangan. Shixna hokimiyat uchun xavfli bo'lgan hamma ishlarni nazorat qilgan. Har bir bosib olingan viloyat va nohiyalarga zudlik bilan shihnalar tayinlangan. Xorazmshohlar davlatida qo'shinlarning tashkiliy tuzilishi, hujum yoki mudofasida qo'llaniladigan harbiy harakatlar tuzugi arab qo'shinlari tuzilishidan oligan bo'lib, ilg'or-o'ng qanoat markaz- chap qanoat ar'ergard va zasada (xofiya) qismlardan iborat edi. Harbiy harakat yoki urush e'lon qilishdan oldin yirik qo'mondonlar, ulamolar, faqihlar, munajjimlar ishtirokida kengash o'tkazilar va shu kengashda ishlab chiqilgan reja asosida harbiy harakat boshlanar edi.

Shunday qilib, Xorazmshohlar davlatida XIII asrning boshlarida mo'g'ullarning O'rta Osiyoga istilosi (bosqinchiligi) boshlanishi arafasida

Xorazmshohlarni Anushteginlar sulolasining so'nggi hukmdori sulton Alouddin Muhammad davrida ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlari, o'zaro nizolar kuchayib ketdi. Bunday vaziyatdan ustalik bilan foydalangan Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullar Xorazmni zabt etishga muvaffaq bo'lgan.

II Bob bo'yicha xulosa

Yuqorida keltirib o'tilgan faktlarni o'rganib shunday xulosaga kelish mumkinki, Somoniylar davlatida tashkil topgan dastlabki markazlashuv keying davrlarda ham Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va boshqa o'rta asr davlatlarining boshqaruvida ham kuzatiladi. Bir davlatda mavjud bo'lgan saroy unvonining boshqa davlatda turli shakl va nomlar bilan atalganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan Hojib unvonining Somoniylar davlatida qo'shinga boshliq sifatida dargohda yuqori o'rinlarda turgan bo'lsa, Qoraxoniylar davlatida xoqonning eng yaqin maslahatchisi sifatida gavdalanganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday misollarni talaygina keltirish mumkin. Boshqa davrlarda kuzatilmagan yana bir holatni kuzatishimiz mumkin. O'sha davr saroy mahkamasi xizmatchilari faqat saroy ahli, ruhoniylar va zodagon dehqonlardan bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga ular muayyan bilimlarga ega bo'lishi shart edi. Odatda, ular arab, fors tillarini puxta egallab olgan, Qur'onni va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan, turli fanlardan bir muncha xabardor bo'lgan savodli aslzodalardan tanlab olingan. Mahkama xizmatchilari faqat saroy ahli, ruhoniylar va zodagon dehqonlardan bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga ular muayyan bilimlarga ega bo'lishi shart edi. Shubhasiz, bu o'rta asrlarning o'ziga xos amaldorlik madaniyati edi.

UMUMIY XULOSA

Ma'lumki, V asr oxiri va IX asr o'rtalariga kelib, arab xalifaligi Sharqda eng rivojlangan imperiyaga aylandi. Xalifalar Mansur, Xorun ar – Rashid, Ma'mun davrlarida xalifalikning markaziy shaharlari, xususan, Bog'dod iqtisodiy va madaniy jihatdan eng rivojlangan shaharga aylandi. Madaniyat, ilm-fan taraqqiy etdi. Bu yerda turli ilmiy, diniy, muzokaralar avj oldi, turli mamlakatlardan kelgan ilm vakillari tomonidan keng ilmiy muhokamalar uyushtiriladigan bo'ldi, ilmgohlar vujudga keldi, kitob ko'chirish, turli tillardan arab tiliga ilmiy kitoblarni o'girish avj oldi, maxsus tarjimonlar maktabi vujudga keldi, asar yozishga qiziqish kuchaydi.

Bu davrda birinchi akademiya – «Donolik uyi» tashkil topdi va bu yerda turli ilmlarning rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratildi, arab xalifasi Ma'mun uning rivojiga maxsus mablag' ajratib turdi. Akademiya – «Donolik uyi»da xalifalikning turli o'lkalaridan kelgan arab, yahudiy, fors, turk, hind, yunon olimlari birgalikda ish olib bordilar. Uning faoliyatida O'rta Osiyodan borgan olimlar ham muhim rol o'ynadi. Bu davr madaniyati foydalanilgan adabiyotlarda Yaqin Sharqda Uyg'onish davri madaniyati sifatida talqin etiladi. O'rta Osiyoda IX – XII asrlarda hukm surgan somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar va xorazmshohlar davlatlari xalqaro maydonda o'z mavqei va tutgan o'rni jihatidan katta e'tibor va nufuzga ega bo'ldilar.

Ahmad Nasr, Ismoil Somoniy, Alptakin, Mahmud G'aznaviy, To'g'rulbek, Sulton Sanjar, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko'ra oladigan davlat arboblari davrida O'rta Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishga erishildi, davlat hokimiyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi. Markaziy Osiyo davlatlarida hukmdorlar islom dini, ilm-fan va madaniyat namoyandalariga homiylik va rahnamolik qildilar. Albatta (hamma hukmdorlar ham emas) ba'zi hukmdorlar davrida saroyda olimu fuzalolar, din

peshvolarining faoliyati uchun yaxshi sharoit yaratildi. So`ngra islom ma`naviyatiga asoslangan madaniy taraqqiyotini vujudga keltirdilar. Ma`naviyat asoslari hisoblangan e`tiqod yakdilligi, siyosiy boshqaruv asoslari, qonun ustuvorligi, axloqiy kamolot, aql-idrok takomili, ma`rifiy barkamollik va fan taraqqiyotining yuqori bosqichiga chiqq oldilar.

«Uyg`onish davri madaniyati» tushunchasi bizningcha, birinchidan, muayyan millat yoki xalqning ma`naviy mahdudlikdan ozod bo`la borishi, milliy qobiqdan chiqib dastlab hududiy, so`ngra, umumjaxon ma`naviyatiga ta`sir ko`rsata borishi, ikkinchidan, tanazzulga yuz tutgan yoki boshqa kuchliroq xalqlar ma`naviyati tazyiqiga uchragan, tarix sahnasidan tushib ketishga mahkum etilgan millat, elat yoki xalqning milliy madaniyatini qaytadan jonlashtirish, tiklash, rivojlantirish va yuksak darajaga ko`tarilishini anglatadi Markaziy Osiyoda ishlab chiqarish munosabatlari qadimdan tarkib topgan Osiyocha ishlab chiqarish usuli asosiga qurilgan edi. Unda davlat hokimiyati xal qiluvchi rol o`ynar edi. IX-XII asrlarda davlat mavqyeining o`sishi iqtisodiy ahvolning yaxshilanishiga turtki berdi. Ko`chmanchilar xavfining tugatilishi, barqarorlik, yuksak dehqonchilik madaniyati, hunarmandchilik va boshqa sohalar iqtisodning rivojlanishiga turtki bo`ldi.

Markaziy Osiyoning geografik joylashuvi va Buyuk Ipak yo`lidagi savdo aloqalari nafaqat iqtisodiy, balki (Sharq va G`arb o`rtasida) o`zaro ilmiy va madaniy tajriba almashuviga katta ta`sir ko`rsatdi. Buyuk Ipak yo`li orqali xalqaro aloqalarning rivojlanishi katta ahamiyatga ega bo`ldi. Qadimdan asrlar davomida shakllangan milliy davlatchilik tajribasi mavjudligida (Xorazm, Kushon, Eftalitlar, Turk hoqonligi va boshqalar) edi. Chunki milliy davlatchilik an`analari o`lkamizda markazlashgan davlat tashkil topishiga turtki bo`ldi. Shu nuqtai nazardan Somoniylar, Qoraxoniylar, G`aznaviylar va Xorazmshohlar davlatlari haqida gapirish mumkin.

Markaziy Osiyoda tarixan yuksak ma'naviy madaniyat shakllandi. Ming yillar davomida vujudga kelgan ma'naviy qadriyatlar turli xil dinlar va xalqlar o'rtasidagi aloqalar zahirida rivojlandi.

Markaziy Osiyo barcha jahon dinlari (zardo'shtiylik, buddizm, nasroniylik, islom) tarqalgan yagona hudud hisoblanadi. Biz o'rganayotgan davrda islom dinining davlat va jamiyat mafkurasi darajasiga ko'tarilishiga, Vatanimizning islom dini va madaniyati markaziga aylanishi, o'lkamizda fiqhshunoslik, tafsir, tasavvuf ilmlarining rivoji shundan dalolat beradi. Islom dini davlat tayanchiga aylandi. Markaziy Osiyo davlatlarida hukmdorlar islom dini, ilm-fan va madaniyat namoyandalariga homiylik va rahnamolik qildilar. Albatta (hamma hukmdorlar ham emas) ba'zi hukmdorlar davrida saroyda olimu fuqalolar, din peshvolarining faoliyati uchun yaxshi sharoit yaratildi. O'z navbatida, ular davlatda ilm-fan va madaniyat ravanaqiga xizmat qilganlar. Xulosa qiladigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan omillar IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda Uyg'onish davri yuzaga kelishiga turtki bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

- 1.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
- 2.Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
- 3.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
- 4.Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-Toshkent: O'zbekiston, 1998
Karimov.I.A.
- 5.Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: O'zbekiston, 2008 Karimov.I.A.

II.O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

- 6.«Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2016 yil 14 sentyabr, O'RQ-406-son.
- 7.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. T, O'RQ-637-son. 23.09.2020 y.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

- 8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947- sonli Farmoni.
- 9.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-sonli Qarori.

10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

IV. Maxsus adabiyotlar.

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 1-oktabr O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan 30.09.2020

2.“Uyg‘onish davri” O‘zME.U-harfi.Birinchi jild.Toshkent,2000-yil

3.Метс А. “ Мусульманский ренесанс” М. 1966 38-bet

Сагдуллаев А. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти.

- Тошкент: Академия, 2000.55-bet

Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. Масъул мухаррирлар

Д.А.Алимова, Э.В.Ртвеладзе. - Тошкент: Шарқ;, 2001.43-bet

Негматов Н. Н. Государство Саманидов. – Дўшанбе: Дониш, 1977.72-bet

Азамат Зиё. Ўзбек халқи давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001.93-бет

Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi.T, 1995.32-bet

B.Eshov. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi T.2014.45-bet

Азамат Зиё. Ўзбек халқи давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001.bet 95-bet

Nizomulmulk .Siyosatnoma .T.,Adolat.1995.126- bet

O‘sha joyda 110-bet

Azamat Ziyoy. O‘zbek davlatchiligi tarixi. T.: Sharq, 2000.96-bet

B.Eshov. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi T.2014.169-bet

Nizomulmulk .Siyosatnoma .T.,Adolat.1995.162-bet

Abu Mansur Saolobiy.Yatimat-ut dahr. T., 197698-bet

Ҳасан Ато Абуший. Туркий қавмлар тарихи. – Тошкент, 1993.34-bet

Караев О. История караханидского каганате,1983, с.14

Древний туркский словарь. 1969.с 422-424

Gardiziy Abu Sa'id AbdulxayZayn al- axbor T., 1991. 84-bet

В.Eshov. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi T.2014. 176-bet

Шониёзов К. Ш. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. – Тошкент: Шарқ, 1999.33-bet

В.Eshov. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi T.2014 177-bet

Караев О.К. История Караханидского каганата (X – начало XIII вв.) –Фрунзе:

Илим, 1983 83-be

O'sha joyda. 244255 b

Yusuf xos HojibQutadg'u bilig.T., 1991 9-bet

Азамат Зиё. Ўбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001. 128-130 бб

Yusuf Hos Hoib. Qutadg'u bilig T., 1991 5-6 betlar

В.Eshov. O'zekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi T.2014 180-bet

Azamat ZiyO'zbek davlatchiligi tarixi. T.: "Sharq", 2001. 114-bet.

Agadjanov .G. Seldjukidi iTurkmeniya v XI-XII vv.-Ashxabad: Ilim,1973

Abul Fazl ayhaqiy.Tarixi Ma'sudiy.T.1962., 381-383-betlar

Nizomulmulk.Siyosatnoma T.,Adolat.1995.246-bet

Agadjanov S.G. Seldjukidi iTurkmeniya v XI-XII vv.-Ashxabad: Ilim,197360-bet

Ўзбекистон тарихи. Р. Муртазаева таҳрири остида. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003.80-bet

Shahobiddin Muhammad annasaviy, Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti, T., 1999.59-bet

Бунёдов З. Ануштагин- Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). А. Аҳмад ва М.Маҳмуд таржимаси. Т., 1998.56-bet

O'zbekiston tarixi. R. Murtazayeva tahriri ostida. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.45-bet

Sagdullayev A.S. va boshq. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: Akademiya, 2000.64-bet

Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi. T.: “Sharq”, 2001. 315-bet


Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi. T.: “Sharq”, 2001. 315-bet

V. Internet saytlari.


1. <https://uz.wikipedia.org/wiki>
2. <https://history.uz>
3. <https://ziyo.net>

Ilovalar:


Somoniylar davlat boshqaruvi tizimi




Qoraxoniylar davlat boshqaruvi tizimi




G'aznaviylar boshqaruvi davrida mansablar va xizmatlar tizimi



Saljuqiylar davlat boshqaruv organlari



Xorazmshohlar davlat boshqaruv tuzilishi



G'aznaviyyalar sulolasi

vakillarining hukmdorlari

(962-1183 yy.)

Alptegin (962-963 yy)

Ishoq (963-965 yy)
Bilgategin (966-972/973 yy)
Piriy (972/973-976/977 yy)
Sabuqtegin (976/977-997 yy)
Ismoil (997 y)
Mahmud G'aznaviy (998-1030 yy)
Muhammad (1030 y)
Ma'sud (1030-1041 yy)
Mavdud (1041-1049 yy)
Ma'sud ibn Mavdud (bir necha kun)
Ali ibn Ma'sud (1049 y)
Abdurashid (1050-1051 yy)
Farruxzod ibn Ma'sud (1051-1058 yy)
Ibrohim ibn Ma'sud (1058-1098/99 yy)
Ma'sud III (1098/99-1115 yy)
Sherzod (1115-1116 yy)
Arslonshoh (1116-1119 yy)
Bahromshoh (1119-1153 yy)
Xisravshoh (1153-1160 yy)
Xisravmalik (1160-1186/1187 yy)

Saljuqiylar sulolasi

hukmdorlari

(1040-1157 yy)

To'g'rulbek (1040-1063 yy)
Alp Arslon (1063-1072 yy)
Malikshoh I (1072-1092 yy)
Mahmud (1092-1094 yy)
Barkyoruq (1094-1104 yy)
Malikshoh II (1104-1105 yy)
G'iyosiddin Abu Shujo
Muhammad (1105-1118 yy)
Sanjar (1118-1157 yy)⁴⁰

⁴⁰ Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: "Sharq", 2001. 315-bet